

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ dots. Musayev A.
“ _____ ” _____ 2012 y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Iboralar o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish
metodikasi**
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Tojiyeva Hulkar
Ilmiy rahbar: dots. T.Almamatov.
Taqrizchi: p.f.n.Q.M.Yadgarov

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI kafedrası yig‘ilishining qarori bilan (Qaror №10.
7.05.2012). Himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov.
(imzo)

Jizzax-2012

Iboralar o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish metodikasi

Reja:

Kirish

1- bob. Iboralar haqida qisqacha ma’lumot.

2- bob. Iboralar o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi vosita.

3- bob. Tasviriy ifodalar o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi vosita.

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Respublikamizda ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, yuksak ma‘naviyatli shaxslar tarbiyalashning yangi tizimini barpo etish, yurt kelajagi uchun barkamol, yetuk, salohiyati yuksak avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustivor yo‘nalishiga aylandi.

Bu borada, avvalo, ta‘lim jarayonida ta‘lim va tarbiya uyg‘unligi tamoyilini keng yo‘lga qo‘yib, yuksak ma‘naviyatli, barkamol avlodni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri qilib belgilab qo‘yildi. Zero, Yurtboshimiz aytganlaridek, “Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.¹

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunlari va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ”ga muvofiq yangilangan pedagogik tafakkur barcha fanlar oldiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Xususan, ona tili ta‘limining bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin va ta‘sirli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga hamda nazariy bilimlardan o‘rinli va to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasini o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an‘analarimizga, boy ma‘naviyatimizga mehr- muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratildi.

Shu bilan birga ta‘lim mazmunining yangilanishida “o‘quvchi o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi” tamoyiliga o‘tildi. Dars jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yanada rivojlantirib, ma‘naviy-tarbiyaviy jihatdan yetuk inson bo‘lib yetishishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan‘anaviy tarzda dars o‘tish, shuningdek, o‘quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish maqsadida turli xil o‘yin-topshiriqlar, boshqotirma va topishmoqlardan foydalanib, dars jarayonini

¹ Karimov I.A Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T. : Ma‘naviyat, 2008, 62-b.

tashkil qilish zamon talablari darajasiga ko'tarilmoqda. Binobarin, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Fan – taraqqiyot demakdir. Fanni yuksak rivojlantirmay, Vatanning kelajagi haqida gapirish qiyin"². Yoki "Xalq ta'limi, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondashuvlar talab qiladi"³.

Bu talablar asosida nutq o'stirish turadi. O'quvchilar nutqini o'stirishda iboralar va tasviriy ifodalar asosiy vosita hisoblanadi. Ibora va tasviriy ifodalarni o'quvchilar nutqida o'rinli qo'llay olish malakalarini hosil qilish ishning dolzarbligi sanaladi.

Mavzu bo'yicha e'lon qilingan ilmiy va ilmiy-metodik ishlar tahlili.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi nazariy ko'rsatma vazifasini o'tadi.

Tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi iboralar tilshunoslarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. O'zbek tilshunosligida bu sohada dastlabki ma'lumotlarni prof. Sh. Rahmatullayev e'lon qilgan. Iboralar murakkab til hodisasi sifatida ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Shu ma'noda iboralarni amaliy va ilmiy o'rganish o'ziga xos yondashuvni, o'ziga xos metod va usulni taqozo etadi. O'zbek tilshunosligida iboralar grammatik, semantik, uslubiy yo'nalishda o'rganilgan. O'zbek tili iboralari dastlab prof. Sh. Rahmatullayevning ishlarida ilmiy tadqiq etilgan. U o'zining qator ilmiy tadqiqotlarida iboralarning til hodisalari bilan o'xshash va farqli xususiyatlari va grammatik tabiatini o'rgandi, ilk bor o'zbek frazemalarining izohli lug'atini tuzdi. Bu lug'atda iboralarning ma'nosini izohlab bergan.

Shuningdek, Sh.Almamatova "O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Bu dissertatsiyada frazemalarning komponent tahlili, xususan, frazemalarning ifodaviy va mazmun jihatidan shakllantirishdagi komponentlarning o'rni, frazemalarning o'z va paradigmatic

² Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida . 6-qism.- Toshkent: O'zbekiston, 1998, 266-b

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011, 206- b.

shakli, komponentlarning tarkibi, variantlanishi kabi masalalarni tatqiq etishni asosiy maqsad qilgan.

“Til va adabiyot ta’limi ” jurnalining 2008-yil №5 sonida Toshkent shahridagi 34-maktab o‘qituvchisi E’tibor Muhammedovanning “Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlar”⁴ nomli ilmiy-metodik maqolasi berilgan. Bu maqolada o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini o‘stirishda iboralarni nutqda qo‘llay olishning ahamiyati katta ekanligi ta’kidlanib, o‘quvchilarning bu mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash va ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida bir nechta mashqlar tavsiya qilgan.

Xuddi shu jurnalning 2010-yil №6 sonida esa Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi Muxtorxon Raximovning “Ma’no ifodalashda frazeologik birliklardan foydalanishga o‘rgatish” nomli ilmiy-metodik maqolasi e’lon qilingan bo‘lib, bu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik tabiati yetarli darajada o‘rganilmaganligi sababli, o‘zbek tilidagi ma’noni kuchaytiruvchi frazeologik birliklarning semantik tabiati, leksik qurshovi masalalari xususida fikr yuritadi.

Sh.Sodiqova. “Turg‘un birikmalarning deformatsiya va modernizatsiya qilinishi” mavzusidagi maqolasida iboralarning uslubiy imkoniyatlari, so‘zlashuv va badiiy uslubga tegishli iboralarning o‘ziga xos qo‘llanishi, badiiy uslubga xos iboralarning zamon talabiga mos ravishda deformatsiya va modernizatsiya qilinishi masalalariga to‘xtalib o‘tgan.

Shuningdek, Hamroqulova Mashhura “O‘quvchilar nutqini o‘stirishda frazemalarning ahamiyati ” mavzusida bitiruv malakaviy ish yozgan. Bu ishni yozishda nutq o‘stiruvchi vositalardan foydalanish usullarini o‘rganishni maqsad qilib olgan. Shuningdek, iboralarning so‘z va so‘z birikmalaridan farqi, nafaol iboralar, maktab darsligida iboralarning o‘tish metodikasiga batafsil to‘xtalgan.

Ishning maqsadi. Iboralar nutqning ko‘rkidir. Shu maqsadda ishda nutq o‘stiruvchi vositalar, ulardan foydalanish usullarini o‘rganish, iboralar va tasviriy

⁴ E. Muhammedova . Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlar. “Til va adabiyot ta’limi ” jurnali. 2008-yil №5

ifodalar orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llarini ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olindi. Shuningdek, bu mavzularni o‘tishda ta’limiy jihatdan bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish bilan birga, o‘quvchilarda insoniy fazilatlarini, xislatlarini yanada rivojlantirib, ularni ma’naviy jihatdan ham yuksak shaxs qilib tarbiyalash muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Ishning vazifalari. Bitiruv malakaviy ishda nazarda tutilgan asosiy maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishiladi:

- ibora, uning ko‘p ma’noлилиги va iboralarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari haqida qisqacha ma’lumot berish;
- nutq o‘stirish nima va nutq o‘stirish metodikasiga to‘xtalib o‘tish;
- o‘quvchilar nutqini o‘stirish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etuvchi nutq o‘stiruvchi vositalarni tadqiq etish;
- ibora va tasviriy ifodalarning o‘quvchilarning nutqini o‘stiruvchi asosiy vosita ekanligini tadqiq etish;
- darslarda iboralarni o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqida iboralardan o‘rinli foydalanish, ularning ma’nolarini to‘g‘ri izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqini aniq misollar vositasida izohlash;
- bu mavzularni o‘tishda har xil o‘yin-topshiriqlar va bir qancha metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish;
- tasviriy ifodalarni o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini yanada jozibador va ta’sirchanligini oshirish.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi uzviylashtirilgan Davlat dasturi asosida tayyorlanib, unda iboralar va tasviriy ifodalarning o‘ziga xos xususiyatlari ham nazariy, ham amaliy jihatidan asoslanib, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tish yo‘llari ishlab chiqildi. Bu mavzularni o‘tish bo‘yicha ko‘rgazmali vositalar, slaydlar, o‘yin-topshiriqlar tavsiya qilindi.

Berilgan xulosa va tavsiyalar amaliyotchi o'qituvchilar uchun , xususan, o'rta maktab tizimining leksikologiya bo'limini o'tishda qo'l keladi deb o'ylaymiz. Bu ayni paytda ishning amaliy ahamiyati hamdir. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob va qisqa xulosadan iborat.

Bitiruv malakaviy ishidan o'rta maktab o'qituvchilari, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishini bitiruvchilari va umuman metodika bilan qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Ishning tadqiq ob'ekti va materiallari sifatida Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", Sh.Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorovlarning, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" oliy o'quv yurtlari uchun darsligi, shuningdek, 5-sinf ona-tili darsligi va "Til va adabiyot ta'limi " jurnallaridan to'plangan faktik dalillardan foydalanildi.

1-BOB. IBORALAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT.

O'zbek tili iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko'pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o'ziga xos hususiyatlarini ham ko'rsatib turadi.

Ibora — tilimizning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so'zning ko'chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi. Masalan, **xamirdan qil sug'urganday** iborasi, “osonlik bilan”, “qiyinchiliksiz ” ma'nosini, **ko'ngil bermoq** iborasi “sevmok” ma'nosini, **qo'y og'zidan cho'p olmagan** iborasi “yuvosh” ma'nosini bildiradi.⁵

Xuddi so'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

Ibora — frazema frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning frazeologiya bo'limida o'rganiladi. Ibora tuzilishiga ko'ra ya'ni birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gapga o'xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar iboralarga ham xosdir.

Iboralar so'z birikmasi yoki gaplar kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi, balki ular, xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Shuning uchun iboralarni turg'un birikmalar hisoblaymiz. Chunki ibora tarkibidagi so'zlarni ajratib bo'lmaydi. Iboralar gapda bitta so'roqqa javob bo'lib, bitta bo'lak vazifasida keladi. Demak, iboralar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: **aravani quruq olib qochmoq, kavushini to'g'rilab qo'ymoq, tomdan tarasha tushganday, kapalagi uchib ketdi** kabilar tilda tayyor holdagi birliklardir.

⁵ M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev, D. Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”, 2006 yil. 76-bet.

Iboralar ham xuddi soʻzlar kabi, shakl va maʼno butunligiga ega. Soʻzning shakliy tomonini tovushlar(harflar) hosil etsa, iboralarning shakliy tomonini soʻzlar hosil etadi: **yoqlamoq – yon bosmoq, rahmdil – koʻngli boʻsh** kabi.

Iboralar 2 xil shaklda boʻladi.

1. Soʻz birikmasi shaklida: **ichi qora, koʻngli toʻq, oq koʻngil** kabi.
2. Gap shaklida: **Tirnoq ostidan kir qidiradi, kapalagi uchib ketdi, ilonning yogʻini yalagan.**

Lekin soʻz birikmasi bilan soʻz birikmasi shaklidagi iboralarning oʻzaro farqi boʻlib, soʻz birikmasining tarkibidagi soʻzlar oʻz leksik maʼno mustaqilligini saqlagan boʻladi. Iboraning tarkibidagi soʻzlar esa oʻz leksik maʼnosi bilan qatnashmaydi, maʼnosini yoʻqotgan boʻladi. Baʼzan ibora soʻz birikmasi bilan shaklan teng kelib qolishi mumkin. Bunday holatda ibora turgʻun birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda boʻladi. Buni biz quyidagi misollarni keltirishimiz orqali qiyoslashimiz mumkin. Masalan: *1. Nima uchun bu haqiqatdan koʻz yumasiz?* (Sharof Rashidov) *2. Ahmadjon atrofda birdan chang, toʻzon boʻlganligi sababli koʻzini yumdi.*

Birinchi gapda “koʻz yummoq” ibora boʻlib, “voz kechmoq maʼnosida”, ikkinchi gapda oʻz maʼnosida kelgan.

Baʼzi iboralar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham boʻladi. Lekin ular nutqda gapning bir boʻlagi vazifasida keladi va hammasi bitta soʻroqqa javob boʻlib, gap tarkibidagi soʻzlar kabi alohida-alohida soʻroqqa javob boʻlmaydi.

Bundan koʻrinib turibdiki iboralar lugʻaviy birlik boʻlgani uchun xuddi soʻzlar kabi gapda biror boʻlak vazifasida keladi.

1. *Aravani quruq olib qoshish yaxshi ish emas.*
2. *Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqaradigan bunday hodisalar... hali ham onda-sonda roʻy berib turadi.*
3. *Azizaning bu xabardan boshi osmonga yetdi.*
4. *Odamlar qoʻltigʻidan tarvuzlari tushib qishloqqa qaytishdi.*

Yuqorida keltirilgan gaplarda iboralar birinchi gapda ega, ikkinchi gapda aniqlovchi, uchinchi gapda kesim, toʻrtinchi gapda esa hol vazifasida kelgan.

Iboralar o'ziga xos ma'no tomoniga ham ega. Iboralardan anglashiladigan ma'no uning tarkibida qatnashgan so'zlarning ma'nolarining oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, obrazli, ko'chma ma'no sifatida bo'ladi.

Masalan: *U bu xabarni eshitib kapalagi uchib ketdi.*

Bu gapdagi kapalak, uchib ketdi so'zlari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay, balki biron narsadan qattiq qo'rqishni ifodalashga asoslangan obrazli ko'chma ma'nodir.

Iboralarning uslubiy imkoniyatlari nihoyatda katta. Xuddi so'zlar kabi iboralar ham uslubiy qo'llanishi jihatdan neytral yoki uslublardan biriga tegishli bo'lishi mumkin. Bugungi nutqimizda **so'zlashuv va badiiy uslubda** iboralardan ko'proq foydalanishga e'tibor qaratilgan, chunki xalqqa tegishli bo'lgan iboralarning qo'llanishi mana shu uslublardan ko'p kuzatiladi. Iboralardan o'z o'rnida foydalanish nutqning ifodaliligini, obrazliligini oshiradi.

So'zlashuv uslubida takror va qaytariqlarning oldini olish, fikrning ta'sirchanligini oshirish maqsadida so'z o'rnida quyidagi iboralardan unumli foydalanadi: **ko'z bo'yamoq, juftakni rostlamoq, qulog'iga lag'mon osmoq, dabdalangni chiqaraman, og'zingni ocha ko'rma, damingni chiqarma, uchib borib, uchib kel, boshimdan ordona qolsin** va boshqalar.

Badiiy uslubda ham iboralarning qo'llanishi o'ziga xos bo'lib, ular badiiy asar tili ta'sirchanligini, shuningdek, badiiy asar qahramonining nutqi ifodaliligini oshirishga yordam beradi. Bunday iboralarga quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: **shaytonga dars bermoq, barq urmoq, oyni etak bilan yopib bo'lmas** kabilar.

Ko'p ma'nolilik hodisasi so'zlarda juda taraqqiy etgan bo'lib, bu hodisa iboralarda ham uchraydi. So'zlarning juda ko'p qismi ko'p ma'nolidir, iboralarda esa unday emas. Iboralarning asosiy qismi bir ma'nolidir.

Iboralar ko'p ma'noligida ham xuddi so'zlarning ko'p ma'noligida bo'lgani kabi bosh va yasama ma'no farq qiladi. So'zlarning ko'p ma'noligida bosh ma'no to'g'ri ma'noga, yasama ma'no esa ko'chma ma'noga teng. Iboralarning ko'p

ma'noligi bundan farq qilib, bosh ma'no ham ko'chma ma'noda bo'ladi. Chunki har qanday frazeologik ma'no

ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Ko'p ma'noli iboralarda uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Masalan: **Tili chiqdi** iborasi.⁶

1. kimning — go'dakning. Nutqqa ega bo'lmoq.

Yodgorning ham tili chiqib qoldi: "dada-dada"ni og'zidan qo'ymaydi. (G'ulom, "Yodgor").

2. kimning — nutqqa ega kishining .Indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qoldi.

"Ko'zing qurmasin, — kampir jilmaydi, — endi tiling chiqib qoldi. Boyadan beri qovog'ingdan qor yog'ayotgan edi".

3. kimning — nutqqa ega kishining. Aytishadigan bo'lmoq. O'xshashi: gap qaytarmoq.

"... Ko'rib turibsiz, kasalmas. Ana, pulni olib, uyga dingillab kirib ketdi". — "Oyim aytganday, borgan sari tiling chiqyapti". (S. Zunnunova, Latta.)

Ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi. Masalan: **To'g'ri kelmoq** iborasi.⁷

1. Muvofiq bo'lmoq, mos bo'lmoq, yaramoq.

Zamira Muhammadjonning idealiga hamma jihatdan to'g'ri kelardi. (P. Qodirov, Uch ildiz.)

2. Bir vaqtda bo'lmoq.

"Yana bir haftadan keyin Salim akam gap berarmishlar".- "Bahona topilib, boraverar ekanman. Ishqilib, Abdulla pochchamning ziyofatiga to'g'ri kelmasin!".(Oybek, Qutlug' qon.)

3. Taqsimlaganda tegmoq.

⁶ Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.- Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1978. – B 230-231

⁷ O'sha kitob. B 239-240.

Agar boshqa zvenolarga ham shunchadan yer to'g'ri kelsa, eplab bo'lmaydi, Komiljon. (R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi.)

4. Yo'liqmoq, uchramoq: O'xshashi: duch kelmoq.

Otasi, qandayin nozanin juvon to'g'ri kelsa ham, ko'z qirini tashlamasdi. (Oydin, Kelin o'g'il tug'ibdi.)

5. Qulay bo'lmoq. Sinonimi: o'ng kelmoq.

Demak, jazo xavfi ketsa-yu, sharoit to'g'ri kelib qolsa, yana qo'rqituv yo'liga o'tishi mumkin. (P. Qodirov, Uch ildiz.)

6. Lozim bo'lmoq, zarur bo'lmoq (shaxssiz).

Doim bir-birovingga xo'mrayib qarashib yoki til uchida gaplashib yurishga to'g'ri keladi. (I.Rahim, Ixlos.)

1.1 Iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Xuddi so'zlarda bo'lgani kabi iboralarda ham omonimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari bor.

Bir xil so'zlardan tuzilgan, tamoman boshqa-boshqa ma'no bildirgan iboralar **omonim iboralar (frazeologik omonimiya)** hisoblanadi.

Frazeologik omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi.

Masalan: **Joni chiqdi-1** va **joni chiqdi-2** kabi. 1- jahli chiqdi, 2 – vafot etdi

Boshiga ko'tarmoq iborasi. 1 – shovqin qilmoq; 2 – hurmat qilmoq ma'nolari bilan omonim iboralar hisoblanadi.

Bu yerda omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe bo'ladi.

Omonimik munosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil bo'ladi.

1. Har ikki ibora tarkibidagi bir komponent omonim bo'ladi, boshqa komponent esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Masalan: **O'ng kelmoq-1** va **o'ng kelmoq-2** iboralari tarkibidagi fe'l komponentlari ayni bir so'z bilan, ism komponentlari esa omonim so'zlar bilan ifodalangan.

1.1 – ters sifatining antonimi.

1.2 – iborada esa tush otining antonimi.

2. Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu soʻzlarning oʻzi boʻladi.

Bunda ikki holatni kuzatishimiz mumkin.

2.1 Iboralar tarkibidagi soʻzlar har xil leksik maʼnosi bilan qatnashadi.

Masalan: **dam bermoq-1 va dam bermoq-2** iboralari tarkibida feʼl ayni bir leksik maʼnoni, ot soʻz turkumi esa boshqa- boshqa leksik maʼno bilan qatnashgan.(dam 1 – havo, yel; dam 2 – istirohat,hordiq.)

2.2 Iborada qatnashgan soʻzlar ayni bir leksik maʼno bilan qatnashadi. Lekin maʼnoviy jihatdan ular omonim boʻladi.

Masalan: **ichag(i) uzildi va ichag(i) uzuldi** iboralari soʻz komponentlari ayni bir leksik maʼno bilan qatnashgan, ammo bu iboralar maʼnosida boshqa-boshqa maʼnolar yotadi.

1. Qattiq kulgandan ichaklar silkina-silkina uzulib ketgudek boʻlishi.
2. Uzoq vaqt ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib ketishi.
3. Iqtisod bilan bogʻliq boʻlib, haqqatdan ham ehtiyoj uchun toʻplangan jamgʻarmalarning tugab yangisiga yetishishdagi qiyinchilik davri, oraliq.

Shakli har xil iboralarning maʼno jihatdan yaqin boʻlishi **sinonim iboralar (frazeologik sinonimlar)** deyiladi. Masalan, **yaxshi koʻrmoq – koʻngil bermoq; dimogʻi shishdi – burni koʻtarildi;**

Frazeologik sinonimlar bir-birlaridan maʼno qirralariga koʻra farq qiladi. Masalan: **yer bilan yakson boʻlmoq – yer bilan yakson qilmoq** iborasi **kulini koʻkka sovurmoq – kuli koʻkka sovurildi** iborasi bilan sinonim, ayni bir maʼnoni anglatadi (butunlay yemirmoq, yoʻq qilmoq). Bu sinonimlar boshqa

belgi-xususiyatlaridan qat'iy nazar ma'no qirrasida farq qiladi. Ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz; bir shingil; bir chimdim* sinonim iboralar asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish lozim. Buning uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z komponent yo'q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa- boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan, *jonini hovuchlab* va *yuragini hovuchlab* – sinonim iboralar: birinchi leksik komponenti ayni bir so'z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponenti esa boshqa- boshqa so'z bilan ifodalangan va bular o'zaro sinonim emas.

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli; uch sinonimli uyalar ham anchagina; to'rt iborani birlashtiruvchi uya ham bor. Masalan, "ta'zirini yemoq" iborasi qatnashadigan uya ikki sinonimdan, "bir yostiqa bosh qo'yimoq" iborasi qatnashadigan uya uch sinonimdan, "esiga tushmoq" iborasi qatnashadigan uya to'rt sinonimdan iborat.

Agar bir so'z bilan bir ibora sinonim bo'lsa leksik – frazeologik sinonim deyiladi.

sho'x – yerga ursang ko'kka sapchiydi;

chidamoq – bardosh bermoq;

Sinonim iboralarni o'quvchilarga o'rgatishning ahamiyatli tomoni shundaki, ular iboralarning ma'noviy qirralarini farqlab, nutq sharoitiga mos ravishda qo'llay oladi.

Masalan, **dimog'i chog' bo'ldi** iborasining sinonimik qatori *bahri ochildi, ko'ngli ochildi, chehrasi ochildi, kayfi chog' bo'ldi* kabi iboralar bo'lib, ular ma'no qirralariga ko'ra bir-biridan qisman farq qiladi. Dimog'i chog' bo'ldi, kayfi chog' bo'ldi iboralari o'ta hursandlik holati bildirsa, ko'ngli ochildi, chehrasi ochildi iboralarida esa hursand bo'lish holati yuqoridagilarga nisbatan ma'nosi kuchsizroqdir. Bunday iboralarni o'quvchilarni nutq sharoitiga mos ravishda qo'llay olishga o'rgatish biz o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar **antonim iboralar (frazeologik antonim)** hisoblanadi. Masalan, *oq ko'ngil – ichi qora; ko'ngli joyiga tushdi – yuragiga g'ulg'ula tushdi;*

Antonimiya til birliklari orasida semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiya hodisasini belgilash, birinchidan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, ko'p ma'nolilik hodisasida bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Bir so'z bir ibora bilan antonim bo'lsa, bu leksik-frazeologik antonim deyiladi.

hafa – og'zi qulog'ida;

eski – ohori to'kilmagan;

Iboralar orasida tarkibidagi hamma so'zlar boshqa- boshqa so'zlardan tashkil topgan bo'lsa antonimlik hodisasini belgilash oson bo'ladi. Masalan, **savol bermoq – javob qaytarmoq**. Lekin nutqimizda birinchi komponenti ayni bir so'zning o'zi, qolgan komponenti antonim bo'lgan iboralar ham bor.

Yuqoridagi nazariy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi o'quvchi-talabalarning, umuman, o'zbek tilini o'rganayotgan yoshlarning og'zaki nutqini o'stirishda, nutq madaniyatlarini egallashlarida iboralarning ahamiyati katta. Iboralardan o'z o'rnida foydalanish nutqning ifodaliligini va jozibaliligini oshiradi.

Shunday ekan, keyingi rejamizda dastlab nutq o'stirish, nutq o'stirish vositalari haqida ma'lumot berib, darsliklarda iboralarni o'tish metodikasiga batafsil to'xtalamiz.

2-BOB. IBORALAR O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRUVCHI VOSITA.

Har bir kishining madaniyatligi, savodxonligi uning so‘zi, nutqi bilan o‘lchanadi. Nutq orqali kishining ichki dunyosi, dunyo qarashi, ruhiy olami, qobilyati, odamgarchiligi, rostgo‘yligi, shaxsi kabi fazilatlari oydinlashadi.

Maktabda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun kurash barcha o‘qituvchilarning, ayniqsa, ona tili o‘qituvchisining asosiy vazifasi sanaladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularning o‘z xalqining adabiy tilini o‘rgatish demakdir.

Adabiy til esa ma’lum bir qolipga solingan, qonun-qoidalariga bo‘ysindirilgan tildir. Ona-tili o‘qituvchisi o‘quvchilarni ana shu adabiy tilga so‘zlashga odatlantira borishi kerak.

O‘quvchining nutqini o‘stirish ishi bola maktabga birinchi qadam qo‘ygan kundan boshlanadi. Nutq ko‘nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi grammatikaning har bir bo‘limiga oid mashg‘ulotda o‘tilga mavzu asosida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmasini o‘stirishga e’tabor berishi lozim.

Bu ko‘nikmaga, dastavval, nutqning ixcham, sodda, ravon va mazmundor bo‘lishi kiradi.

Shuning uchun har bir grammatika va imlo darsida nutq o‘stirish ishi, o‘qituvchining diqqat markazida turushi, o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va so‘z boyligini kengaytirish birinchi darajali vazifa qilib qo‘yilishi kerak.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchi nutqining ta’siri kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi eng avval o‘z nutqining shakl va mazmuni bilan o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini, fikrlarini qo‘zg‘atmog‘i darkor.

Ma’lumki nutqni ikkiga ajratamiz, og‘zaki va yozma. Ular mohiyatiga ko‘ra o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lsada, ularning o‘ziga xos xarakterli tomonlari ham bor. Umuman olganda ular qo‘llanish nuqtai nazardan deyarlik bir xil ahamiyatga ega, lekin, ular bir-birining o‘rnini bosolmaydi. Shuning uchun ham ba’zilar baho

berganda, ayrimlarning og‘zaki nutqi yaxshi, ayrimlarning yozma nutqi yaxshi deyishadi. Lekin har qanday holatda ham u yoki bu nutqning mas‘uliyati soqit qilinmaydi. Shu nuqtai nazardan yondoshganda yozma nutq bir qator talablarga javob berish kerak, ya’ni uni o‘qiganda o‘quvchi (yoki kitobxon) muallif nutqining (yozma nutqining) mazmunini qiynalmasdan anglab yetadigan bo‘lishi kerak. Shuningdek turli xil takrorlar, uzundan uzoq jumlar, anglanishi qiyin bo‘lgan birikmalardan soqit bo‘lishi lozim. Bu jihatdan olib qaraganda yozma nutqning imkoniyatlari ancha yaxshi. Chunki har bir so‘z va ifoda haqida o‘ylab, agar noto‘g‘ri qo‘llanilgan o‘rinlar bo‘lsa, ularni ma‘qul so‘z va iboralar bilan almashtirish, matnni qayta o‘qib chiqib, o‘zgartirishi, uni xohlagancha o‘chirib, tuzatish mumkin. Shuning uchun xalqimizda “Xatga tushding, o‘tga tushding” iborasi qo‘llanadiki, bu ham yozma nutqqa qo‘yiladigan talabdir.

Yozma nutq savodxonlik tufayli hosil bo‘ladi, kishi o‘z fikrini yozma shaklda ro‘yobga chiqaradi va ko‘ruv organi orqali o‘zgalarning ham o‘zining ham fikrini qabul qiladi. Bu nutqda vaqt ko‘proq ketadi.

Og‘zaki nutq esa yozma nutqdan farqli o‘laroq qisqa muddatda tuzulishi, hozirjavobligi, tezkorligi bilan ajralib turadi. Og‘zaki nutqning yozma nutqqa nisbatan imkoniyatlari keng, ya’ni, fikrni ifodalashda turli xil ekstrolingvistik vositalardan, ton, ohang, pauza, mimikalardan foydalanadi. Bu og‘zaki nutq oson degan xulosani chiqarmaydi. Og‘zaki nutq xato qilishi mumkin bo‘lmagan nutqdir. Uni o‘chirib bo‘lmaydi, qayta tuzatib bo‘lmaydi. Uni o‘ta mas‘uliyat bilan izhor qilish kerak. Shuning uchun ham xalqimizda og‘zaki nutqning jonli, ifodali, to‘g‘ri va ta’sirli bo‘lishiga davat etadigan “ Avval o‘yla, keyin so‘yla”, “Aytilgan so‘z, otilgan o‘q”, “Tiling bilan dilingni bir tut”, “Anglamay so‘zlagan og‘rimay o‘ladi” kabi maqollar ko‘plab ishlatiladi.

Odatda nutq o‘stirish deganda og‘zaki nutq nazarda tutiladi. Chunki og‘zaki nutq fikrni ifodalash vositasidir, ijodiylikni yuzaga chiqaruvchi vosita sanaladi.

Ana shu yuqorida sanalganlarni o‘quvchilarga singdirish, birinchidan, o‘ta mas‘uliyatli sanalsa, ikkinchidan , nutqni o‘stirish vositasidir

Ogʻzaki nutq bilan yozma nutq oʻrtasida oʻziga xos tomonlar borligi orfografiya bilan ham aloqador, tilimizdagi barcha soʻzlarni qanday aytsak hamisha shunday yozavermaymiz va aksincha aynan yozganimizdek talaffuz qilavermaymiz. Shunday ekan maktabda oʻquvchilarning ogʻzaki nutq bilan yozma nutqini bir-biriga bogʻlab rivojlantirishga ahamiyat berish kerak.

Bola bilimi, dunyoqarashi oʻsib borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham rivojlana boradi. Shuning uchun ham oʻquvchilarning nutqini oʻstirishni aytmqochi yoki yozmoqchi boʻlgan jummalarni oldindan oʻylab olish koʻnikmasini hosil qilib borish zarur. Oʻquvchilardan shuni talab etingki – degan edi M.I. Kalinin, - ular oldin oʻylasinlar soʻngra soʻylasinlar, lekin oldin gapirib qoʻyib, undan keyin oʻylamasinlar.⁸

Oʻquvchilarning nutq madaniyatini tarbiyalash va ishni muayyan reja asosida olib borish uchun nutqidagi nuqsonlar va ularning sabablarini oʻrganish katta metodik ahamiyatga egadir.

Bu sabablar:

1. Mahalliy sheva yoki oila taʼsiri;
2. Koʻcha tili (vulgarizm)ning taʼsiri. Masalan, pul oʻrniga koʻki soʻzini ishlatish hollari.
3. Adabiy til normalariga amal qilmaydigan oʻqituvchilarning nutqi;
4. Maktab oʻquvchilarining ogʻzaki nutqini oʻstirishga yetarli eʼtibor bermaslik.
5. Nutq organlarining birida gʻayritabiiy kamchilikning boʻlishi yoki ortiqcha erkalatib yuborish tufayli ayrim oʻquvchilarda boʻladigan individual nuqsonlardir. Masalan, tili chuchuklik, r tovushi oʻrniga y ishlatish (bordim-boydim) shular jumlasiga kiradi.

Oʻquvchilarning nutqini oʻstirish va rivojlantirishda nutq oʻstiruvchi vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Nutq oʻstiruvchi vositalarga quyidagilar kiradi:

⁸ Yo. Gʻulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B. Mirzaahmedov Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. "Oʻqituvchi nashriyoti Toshkent – 1975 261- bet

1. Lug‘at ustida ishlash va nutq o‘stirish.

Kishining so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning nutqi shunchalik mazmunli, aniq, ravshan va ta’sirli bo‘ladi. Maktabda lug‘at ustida ishlashni shunday uyushtirish kerakki deb ta’kidlanadi ona tili va adabiyot dasturida, o‘quvchilar tushunmaydigan birorta so‘z yoki ibora izohsiz qolmasin.

Lug‘at ustida ishlash:

1. O‘quvchilarni ona tilining lug‘at boyligi bilan tanishtirish.
2. Lug‘at sostavidagi so‘zlarni nutqda to‘g‘ri, o‘rinli qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilish.
3. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni yangi so‘zlar bilan tanishtirish.

Shevachilik va boshqa ta’sirlar tufayli o‘quvchilar nutqida uchraydigan,

Lug‘at ustida ishlash, birinchidan, o‘quvchiga ta’lim - tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi, uning fikr doirasini kengaytiradi, kelajak faoliyatida zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Ikkinchidan, o‘quvchini yangi-yangi so‘zlar bilan tanishtiradi, ayrim so‘zlarning (o‘quvchilarga ilgaridan tanish bo‘lsa ham) ma’nosini aniqlashtiradi, tilimizning boy, nafis ekanligini ko‘rsatadi, har qanday fikrni ifoda qila olish uchun so‘z boyligimiz yetarli ekanligini isbotlaydi. Uchinchidan, ona tili darslarida grammatik, orfografik, punktuatsion qoidalar ustida mashg‘ulotlar olib borilar ekan, ma’lum maqsadni ko‘zlab muntazam ravishda lug‘at ustida ishlashni ham unutmaslik talab qilinadi.

Bizning nutqimizning shakllanishida so‘zlar alohida ahamiyat kasb etganligi sababli lug‘at ustida ishlash, so‘zlarning ma’nolarini izohlash nutq o‘stiruvchi vositalarning muhimi hisoblanadi.

2. Orfoepiya me’yorlari va nutq o‘stirish.

So‘z, ibora va morfemalar hamda nutq tovushlarining aytilishi hozirgi o‘zbek adabiy tilida talaffuz deb yuritiladi. Adabiy talaffuzning normalarini belgilab beruvchi qoidalar to‘plami esa orfoepiya deyiladi.

O'quvchilar nutqini orfoepiya me'yorlari orqali o'stirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak.

1. O'quvchilarning nutqini o'stirishda, ularning so'z boyligini oshirib, fikr doirasini kengaytirishda kitob o'qish, ayniqsa badiiy adabiyotlar o'qishga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari, asosan, adabiy til normalariga amal qilib yoziladi.

2. Adabiy talaffuzni o'quvchilarga har bir darsda o'tiladigan grammatik, orfografik va punktuatsion qoidalarga bog'lab izchillik bilan o'rgata borish.

3. O'quvchi nutqidagi adabiy tilga xos bo'lmagan faktlarni to'plab, bularning adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmasligini, hamma uchun tushunarli emasligini, qo'llash noqulayligini aniq misollar bilan ko'rsata borish.

4. Aytilishi va yozilishi farq qiladigan so'zlarni o'z ichiga olga matn ustida ishlash ham foydalidir. Bu bilan o'quvchilarning ham orfoepik, ham orfografik qoidalarni mustahkam o'zlashtirishga imkon beradi.

5. Maktab o'quvchilariga orfoepiya me'yorlarini singdirishda shuningdek jamoa tarzda radio tinglash, telivozor ekranidan maxsus telefilmlarni tomosha qilish, badiiy so'z ustalarining nutqlarini radio yoki magnitafon orqali eshitish muhim vositalardan sanaladi. Bunda ko'rish va eshitishdan kifoyalaniq qolmay, o'quvchilarni munozara qilishga odatlantirish kerak, bu bilan o'quvchining nutqi ham, mustaqil fikr yuritish qobiliyati ham o'sa boradi.

6. She'r va prozaik parchalarni yodlatish nutq o'stirish vositalaridan biridir. Bu ishda o'qituvchidan masalaga metodik to'g'ri yondashish talab etiladi.

3. Orfografiya va nutq o'stirish

Orfografiya va nutq rejimi ham maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi tomonidan o'quvchilarning savodxonligini oshiruvchi, ularning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda amalga oshiriladigan vosita hisoblanadi.

Orfografiya va nutq rejimi talablariga to'la javob berish uchun avvalo har bir o'qituvchi nutq madaniyatini yuksak darajada egallagan bo'lishi shart. Uning

nutqi mazmunli, ravon va sistemali adabiy til normalari asosida bo‘lishi lozim. O‘qituvchining nutqi namunali bo‘lishi kerak. Bu o‘qituvchiga taqlid qilishga moyil bo‘lgan o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda muhim omildir.

Ikkinchidan, har bir o‘qituvchi qaysi fanni o‘qitishidan qat’iy nazar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini adabiy tilda qaydarajada ifodalay olishini sinchiklab kuzatishi, uning nutqidagi kamchiliklarni, dialektal xatolarni tuzatib borishi lozim. Bularning hammasi ham yozma, ham og‘zaki nutqqa oiddir.

Maktabda orfografiya bo‘yicha o‘quvchilar nutqini o‘stirishda darsda barcha fanlardagi daftarlari orfografik va punktuatsion talablarga hamda chiroyli yozuv qoidalariga to‘la amal qilgan holda yozishini, “Imlo lug‘ati”dan muntazam foydalanishini o‘qituvchi tekshirib borishi zarur. Shuningdek, devorlarga osib qo‘yiladigan jadval, turli e‘lon va ro‘yxatlar, plakat va rejalar, shiorlar va chaqiriqlarni orfografik-punktuatsion va stilistik jihatdan savodli yozilishiga alohida e‘tibor berish kerak. Chunki orfografiya me‘yorlari va qoidalari o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stiruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Orfoepiyada og‘zaki nutqqa e‘tibor berilsa, orfografiya esa yozma nutq mahsulidir.

4. Ibora va tasviriy ifodalar nutq o‘stiruvchi vositalar.

Ibora va tasviriy ifodalar ham nutq o‘stiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanab, ular o‘quvchilarning lug‘at boyligining muhim qismi sanaladi. Ibora va tasviriy ifodalar leksikologiya bo‘limida o‘rganilib, nutqimizni boyitadigan, go‘zallashtiradigan va ta’sirchanligini oshiradigan vositalardir. O‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun ona tili mashg‘ulotlarida iboralarni o‘tishda gapda berilgan so‘zlarni iboralar bilan almashtirish, ular ma’nosini sharhlash, ma’no darajalarining oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan,

1. *U ishni oson bajardi. – U ishni xamirdan qil sug‘urganday bajardi.*
2. *Bu xushxabarni eshitgan onam juda xursand bo‘ldi. – Bu xushxabarni eshitgan onamning chehrasi ochildi.*

Bu gaplarning birinchisida fikr sodda, oddiy qilib aytilgan bo‘lib, ikkinchisida esa fikr birinchisiga qaraganda ta’sirli, ifodali, obrazli qilib berilgan. Birinchi gapda ifodalagan ma’no darajasi, ikkinchi gapda yanada oshib boradi, ma’no kuchayadi. Bu gaplarni taqqoslaganimizdan ko‘rinib turibdiki, iboralar qatnashgan gaplar so‘zlovchining maqsadini aniq, ta’sirchan qilib, so‘zlovchi va tinglovchining hayajonini qo‘zg‘aydi, kayfiyatiga ham ta’sir qiladi.

Bundan tashqari o‘quvchilarga iboralar lug‘atini tuzdirish, iboralarga zid ma’noli, muqobil yoki so‘z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilar badiiy asarni o‘qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli iboralar ma’nosi sharhlangan izohli lug‘at daftari tutsalar, mazkur so‘zlar ishtrok etgan gaplar tuzsalar so‘z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, nutqda tasviriy ifodalardan to‘g‘ri, o‘rinli foydalanish nutq go‘zalligini taminlovchi, uni jozibali qiluvchi asosiy usullardan biri sanaladi. Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqali berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma’nolarini sharhlash, ular ishtrokida gap va matnlar tuzish foydalidir.

Tasviriy ifoda qatnashgan gap va qatnashmagan gapni taqqoslab, ma’nolarini izohlash ham o‘quvchilar nutqini rivojlantiradi. Masalan,

1. Bahor faslida issiq o‘lkalardan qushlar uchib keladi. – Bahor faslida issiq o‘lkalardan qanotli do‘stlar uchib keladi.

Bunda tasviriy ifoda qatnashgan gap birinchi gapga nisbatan badiiyyroq, ta’sirchanroq ifodalangan. Bundan ko‘rinib turibdiki tasviriy ifodalardan ko‘proq badiiy uslubda foydalanadi.

Bu gapni tuzish jarayonida “qanotli do‘stlar” tasviriy ifodaning keltirilishi orqali o‘quvchilarda ekologik tushunchalar, ekologik madaniyat shakllanib, rivojlanib boradi.

4. Grammatika va nutq o‘stirish.

Tilshunoslikning grammatika bo‘limi ham o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi muhim vositalardan biri sanaladi. Grammatika morfologiya va sintaksis

bo‘limlaridan iborat. Masalan, morfologiya bo‘limini o‘rganayotganimizda so‘z turkumlari haqida berilgan umumiy ma’lumot o‘quvchilarning so‘zlarni ma’no jihatdan farqlashlariga (ko‘k – osmon, ko‘k – rang) imkon beradi, ular turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalarni to‘g‘ri ishlatishga o‘rganadilar. Shuningdek so‘z turkumlarini o‘tishda adabiy til va sheva qiyoslangan jadvallardan foydalansak o‘quvchilarning nutqi yanada boyiydi. Masalan,

Adabiy til	Shevalarda
narvon	shoti
sigir	siyir, inak
sabzi	gashir
qovoq	kadi

Grammatikaning sintaksis bo‘limi ham nutq o‘stirish malakalarini tarbiyalashda judayam boy material beradi.

O‘quvchilarga dastlab gap haqida umumiy ma’lumot berishdan nutq o‘stirish maqsadi amalga oshirila boshlaydi. Bunda, avvalo, biz gapning nisbiy tugallangan fikr bildirishini, tugallangan fikr bir so‘zlar vositasida ham ifodalanishini, buning uchun gaplarni tegishli intonatsiya bilan o‘qish zarur ekanligini o‘rgatishimiz lozim. Shuningdek, o‘quvchilarga logik urg‘u haqida ham tushuncha berishimiz kerak. Chunki logik urg‘u fikrni ko‘proq nimaga qaratilganini aniqlab beradi.

Nutqimizda tuzayotgan gaplarimiz so‘zlardan tashkil topadi. Har bir gapda soz’larning o‘z o‘rni va tartibi bor. Agar ana shu tartib buzilsa, fikr anglashilmay qoladi yoki gap bo‘laklarining sintaktik funksiyasi o‘zgarib ketadi. Masalan, *qushlar, sayroqi sayrayapdi bog‘da* shaklida so‘zlar joylashtirilsa, fikrni yaxshi anglab bo‘lmaydi. Bu o‘rinda quyidagi tartib kerak. *Bog‘da sayroqi qushlar sayrayapti*. Yana shuningdek *qizil olma* deyilganda *qizil*-aniqlovchi, *olma* – aniqlanmish bo‘lsa, *olma qizil* tartibi qo‘llanganda *olma*-ega , *qizil*- kesim vazifasini bajaradi. Chunki ikkinchi gapda, nisbiy tugallangan ohang hamda nisbiy

tugallangan ma'no anglashilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, gapda so'zlarning tartibini yaxshi bilish nutqni to'g'ri qurish asosidir. So'zlarni o'z tartibi bilan ishlata bilgan o'quvchining fikri ham, nutqi ham aniq, ravon bo'ladi.

Fikrning ravon, ifodali, ta'sirliligi va badiiyligi uchun faqat ega va kesimgina emas, balki nutqda ikkinchi darajali bo'laklarni ishlatish ham zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga har bir gap bo'lagi, uning ifodalanishi haqidagi grammatik qoidalarni puxta tushuntirish bilan ularni o'z nutqini ifodali bayon qilishga o'rgatish kerak.

Qo'shma gap va uning turlarini o'tishda o'quvchilar nutqini o'stirish uchun quyidagi mashqlarni bajartirish mumkin.

1. Berilgan sodda gaplardan qo'shma gap tuzish.
2. Bog'langan qo'shma gapni ergash gapli qo'shma gapga aylantirish.
3. Ergash gapli qo'shma gapni bog'langan qo'shma gapga aylantirish.
4. Ergash gapli qo'shma gapni sodda gapga va yoyiq sodda gapni qo'shma gapga aylantirish.
5. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish. Bu gaplarda *aytdi, dedi* fe'l kesimlarini birga ishlatish.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iboralar nutq jaroyonida hal qiluvchi vositalardan biri. Ular ishtirokida so'zlovchining maqsadi, mo'ljali nutq qaratilgan shaxsga o'ta ko'tarinki kayfiyat yoki aksini hosil qiladi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsuli bo'lgan iboralar xuddi leksemalar singari bolalarning lug'at boyligini tadrijiy ravishda oshirib boradi.

Respublikamiz Prezidentining "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmonining uchinchi yo'nalishida o'quv standartlari, o'quv dastur va darsliklarini takomillashtirish masalasi qo'yilgan. Shu asosda DTS, dastur, darsliklarning takomillashtirilgan variantlari tayyorlandi hamda shular asosida ish olib borilmoqda. Ona tili ta'limining takomillashtirilgan standarti tayyorlangan uzviylashtirilgan DTSda

ham nutq o‘stirishga alohida e‘tibor berilgan. Unda o‘quvchilar ona tili fanidan quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari shart deb belgilab qo‘yilgan.

1. grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlar;

—fonetika, leksikologiya, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar.

2. nutq o‘stirish:

— birinchi yo‘nalish — o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish;

— ikkinchi yo‘nalish — o‘zbek adabiy tili me‘yorlarini o‘rgatish, adabiy talaffuz me‘yorlari, shuningdek, lug‘aviy sinonimika, qo‘shimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish;

— uchinchi yo‘nalish — o‘quvchilarda fikrni og‘zaki va yozma bog‘lanishli bayon qilish malaka hamda ko‘nikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan.

DTSdan ham ko‘rinib turibdiki nutq o‘stirishning uchta yo‘nalishi

1. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish.

2. Adabiy til me‘yorlarini o‘zlashtirish, ayniqsa, adabiy talaffuz me‘yorlarini o‘zlashtirish.

3. Og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish ta‘kidlanadi.

Ana shu nuqtai nazardan yondoshsak, iboralar ham o‘quvchi so‘z boyligini oshiruvchi vositalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham ularni maxsus dars sifatida o‘quvchilarga o‘rgatamiz. Darhaqiqat, iboralar tarkibi, tuzilishi, anglatgan ma‘nolari jihatidan birinchidan, o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otsa, ikkinchidan, ma‘lum darajada qiyinchilik ham tug‘diradi. Chunonchi, so‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llaganimizda tinglovchiga ba‘zan tushunarli, ba‘zan mavhum bo‘lib qolishi mumkin. Iboralar esa to‘lig‘icha ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan til birliklaridir.

Iboralar o‘rta maktab ta‘lim tizimida mahsus mavzu sifatida 5-sinfning leksikologiya bo‘limida o‘rganiladi. Darslikda “Iboralar” va “Iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqi” kabi mavzular keltirilgan bo‘lib, bu mavzular uchun dasturda 2-soat vaqt ajratilgan .

Darslikda barcha mavzularda, shuningdek, yuqoridagi mavzularda ham o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari berilgan. Bu topshiriqlar turli usullar bilan o'qituvchi hamkorligida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarishi kerak. Ularni bajarishda ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o'yin-topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi o'quvchilardan bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. O'yin-topshiriqlar ona tili darslarining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. O'yin-topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u ko'pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunlanib, o'quvchi va guruhlarga ochko (yoki ball)lar beriladi. Bu, shubhasiz, topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshiradi. Natijada, o'quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha ortadi. Shu bilan birga, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug'ullanish ehtiyojini tug'diradi. Shunday ekan, o'qituvchi darslarining samarali bo'lishi uchun turli o'yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, hozirgi zamon ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy tarzda dars o'tish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini yanada rivojlantirib, tarbiyaviy jihatdan ham yetuk inson bo'lib yetishishida muhim omillardan biri sanaladi.

Bu esa fan o'qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Bugungi davr talabi ham ana shudir.

Darslikda berilgan iboralar mavzusini o'tishda o'yin-topshiriqlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib darsni tashkil etsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. 1 Iboralarni o'tish metodikasi.

5-sinf darsligida bu mavzuga bag'ishlangan topshiriq berilib, bu toshiriq o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning mustaqil bajarishi buyurilgan.

Topshiriq. Quyida berilgan gap va birikmalarning qanday ma'no ifodalashini ayting. Unga mazmunan teng bo'lgan va uning o'rnida almashtirish mumkin bo'lgan so'zni topib ro'parasiga yozing.

Bu topshiriqni bajarishda sinfdagi har bir o'quvchining mustaqil fikri so'raladi. O'quvchilar keltirilgan iboralarning ma'nosini izohlab, unga teng kelgan so'zlarni yoniga yozib qo'yadi. Topshiriqni bajartirish orqali o'quvchilarni chuqur mushohada qilishga, ularning mustaqil fikrlashi va og'zaki nutqini rivojlantirishga erishamiz. Topshiriqqa qo'shimcha qilib keltirilgan iboralarning sinonimini topish yoki ular ishtirokida gap tuzish vazifasi ham berilishi mumkin.

Og'zi qulog'iga yetgan	xursand
Oyog'ini qo'liga olib keldi	tez kelmoq
Yog' tushsa yalagudek	nihoyatda top-toza.

Og'zi qulog'iga yetgan — behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig'ishtirib ololmaslik. Kishilarning biron narsa yoki voqea-hodisadan nihoyatda xursandchiligini bildiradigan ruhiy holat hisoblanadi.

Bu ibora xursand so'ziga teng keladi.

Sinonimlari: *boshi ko'kka yetdi, terisiga sig'may ketdi.*

Adiba bu xabarni eshitib, og'zi qulog'iga yetdi.

Oyog'ini qo'liga olib keldi — shunday ruhiy holatki o'ta xursand bo'ganda yoki aksida masofani o'ta tez sur'at bilan bosib kelmoq, biron joyga tez kelmoq ma'nosini bildiradi.

Unga teng kelaydigan so'z – tez kelmoq.

G'ulomjon kechikayotganligi sababli maktabga oyog'ini qo'liga olib, nafasi bo'g'ziga tiqilgan holda yetib keldi.

Yog‘ tushsa yalagudek — nihoyat darajada top-toza ma’nosini bildiradi. Biron joyni tozalashda mehr bilan bajarib, top-toza qilib qo‘yish.

Unga teng kelaydigan so‘z — nihoyatda top-toza.

Sinonimi: *yog‘ tomsa yalagudek, moy tomsa yalagudek qilib*

Shahnoza mehmonlar kelayotganligi sababli uylarini yog‘ tushsa yalagudek qilib qo‘ydi.

Bu ibora anglatgan ma’no boshqa so‘zlar bilan yoki boshqacha ko‘rinishda ifodalanmaydi. Ta’sirchanligi boshqa ifodalash vositalaridan kuchli.

Bu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar ibora va uning xarakterli xususiyatlari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ladilar, chunki yuqorida topshiriq bajarish jarayonida o‘zlari faol ishtirok etadilar, tasavvur qiladilar. Iboraning nutqdagi ta’sir kuchini his qiladilar. O‘quvchilardagi ana shu umumiy tushuncha va xulosalarni mustahkamlash maqsadida yangi mavzuni tushuntiramiz.

Yangi mavzu bayoni ekranga slayd asosida chiqariladi.

Ma’nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi. Masalan,

***Oq ko‘ngil* – qanday? yaxshi ma’nosida.**

***Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* – yuvosh, qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.**

***Yerga ursang ko‘kka sapchiydi* – sho‘x, qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.**

***Boshga ko‘tarmoq* – hurmatlamoq, shovqin qilmoq (omonim ibora), nima qilmoq? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.**

Nazariy ma’lumotni qay darajada o‘zlashtirganligini bir yoki ikki savol berish orqali tekshirib ko‘ramiz. O‘quvchilarning iboralar haqida to‘liq

ma'lumotga ega bo'lganiga ishonch hosil qilgach, o'quvchilarga berilgan nazariy ma'lumotni mustahkamlash maqsadida 536-mashqni bajaramiz.

536-mashq. Matnni o'qing. Undagi fikr haqida bahs yuriting.

“Burni ko'tarilgan” iborasi takabbur, manman, o'ziga bino qo'ygan kimsalarga nisbatan aytiladi. O'ta salbiy ma'noga ega. Qaddini tik tutib, burnini havolantirib yurgan kishi burnidan narini ko'rolmay qoladi. Mansabi yoki boyligiga g'ururlanib hech qaysi odamni mensimay qo'yadi.

(Mahmud

Sattor)

Bu mashqni o'quvchilar bir-birlari bilan bahs yuritib bajaradi va o'zlarining fikrlarini daftarlariga yozib qo'yadi. Undan so'ng o'qituvchi ularning fikrlarini xulosalab, darsning tarbiyaviy maqsadini (o'quvchilarda insoniy xislatlarni rivojlantirish) ham o'quvchilar ongiga singdirib ketadi.

Bu ibora haddan tashqari gerdaygan, kibrlangan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Sinonimi: *dimog'i shishdi*. Ba'zi insonlar katta boylik to'plasa yoki yuqori lavozimni egallasa, hammani birday ko'rmasdan, ularni nazariga ilmay qo'yadi. Bunday insonlarning bu salbiy harakati boshqalarning g'ashiga tegishi yoki insonlarning dilini og'ritishi mumkin. Bu salbiy xislatdagi odamlar vaqti kelib jamiyatda, insonlar orasida obro'sizlanib, elda qadrsiz bo'lib qoladi.

Shunday ekan, aziz o'quvchilar sizlar ham kelajakda o'z sevgan kasbingizni egallab, yuqori martabalarga erishganingizda bunday takabburlikka, manmanlikka yo'l qo'ymang. Hammaga birday munosabatda bo'ling. Aks holda yillar davomida qiynalib to'plagan obro'yingiz bir pul bo'ladi. Insonlar orasida hurmatga sazovar bo'lmay, ularda salbiy taassurot qoldirasiz.

Keyingi mashqni bajarishdan avval o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, darsni musobaqali tarzda tashkil etamiz. Bunda 1 - guruhga **“Chaqqonlar”**, 2 – guruhga **“Topqirlar”** deb nom beramiz.

537-538-mashqlarni va darsni mustahkamlashni musobaqali tarzda bajarishib, guruhlar bir-birlari bilan bellashadilar. G'olib komondalar albatta rag'batlantiriladi. Bu mashqlarni musobaqali tarzda tashkil etishdan asosiy maqsad o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish, ularning faolligini oshirish va mavzuni xotirasida yaxshi saqlanishiga erishishdir.

537-mashq. “Tilining uchida turmoq”, “Tishining kovagida saqlamoq” kabi iboralarga izoh bering. Ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Birinchi “Chaqqonlar” guruhi: *“Tilining uchida turmoq”* iborasini izohlab unga gap tuzadi.

Ikkinchi guruh “Topqirlar”: *“Tishining kovagida saqlamoq”* iborasini izohlab unga gap tuzadi.

Qaysi guruh iboralarning ma'nosini to'g'ri izohlab, ko'p va to'g'ri gaplar tuzsa g'olib sanaladi.

1 – Guruh taxminan shunday izohlashi mumkin: *“Tilining uchida turmoq”* – iborasi biron bir narsa yoki biron bir savolga javobni bila turib, shu daqiqada xotirasida tiklab ayta olmaslik holatiga nisbatan ishlatiladi. Bilgan narsasini bir zumga esdan chiqarish.

Gaplar:

1. Siddiqjon - “Bu javobni hozir aytolmayman, lekin tilimning uchida turibdi ” – deb javob berdi.

2. “Tilimning uchida turibdi, hozir aytaman bu qanaqa hashorat ekanligini” – deb Bobur hayajonlanib javob berdi.

3. “Azboroyi xudo, shoshganimdan , buning nomini ham unitib qo'yibman, tilimning uchida turibdiya”.

2 – Guruh. “Chaqqonlar” quyidagicha izohlashi mumkin.

“*Tishining kovagida saqlamoq*” – iborasi biron narsani yaqin kishilari uchun ilinib saqlab yurishga, shuningdek yiqqan-tergan boyliklarini, mablag‘larini o‘ta ehtiyotkorlik bilan, yashirin holda hech kimga bildirmasdan asrab avaylashga nisbatan aytiladi.

Gaplar:

1. Xadicha xola bu meva-chevalarni shahardagi qizi uchun tishining kovagida saqlab yuribdi.
2. Qishlog‘imizning bir dehqoni mehnat qilib, orttirganini yemay, ichmay tishining kovagida asrab yuradi.
3. “Bu xabarni tishingning kovagida saqlab yurishdan nima foyda, baribir hamma eshitadi” – deb Oygul zarda bilan javob berdi.

Bu mashqni bajarish orqali guruh a‘zolarining barchasi yuqorida iboralarning ma‘nosini chuqurroq biladilar va iboralarni qatnashtirib gaplar tuzish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Musobaqa oxirida g‘olib guruh aniqlanib, rag‘batlantiriladi.

***538-mashq. Sinf taxtasi yoniga ikkita o‘quvchi chiqsin. Birinchi o‘quvchi ijobiy ma’noga, ikkinchi o‘quvchi salbiy ma’noga ega bo‘lgan iboralarga misol keltirsin. Shu tariqa o‘yin davom ettiriladi.**

Bu o‘yinga “**Yaxshilar va yomonlar**” o‘yini deb nom beramiz. Har bir guruhdan o‘zlari tanlagan bittadan vakil chiqadi. “Chaqqonlar” guruhi ijobiy ma’noga ega iboralarga, “Topqirlar” guruhi esa salbiy ma’noga ega bo‘lgan iboralarga misollar topadi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar ijobiy va salbiy iboralardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmariga ega bo‘ladi. O‘yinda vaqt belgilanib, qaysi guruh ko‘p va to‘g‘ri misol topsa g‘olib sanaladi.

- | | |
|--|--|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. “Chaqqonlar” guruhi: <p style="margin-left: 40px;">tilidan bol tomadi</p> <p style="margin-left: 40px;">oq ko‘ngil</p> <p style="margin-left: 40px;">ko‘kka ko‘tarmoq</p> | <ol style="list-style-type: none"> 2. “Topqirlar” guruhi <p style="margin-left: 40px;">ilonning yog‘ini yalagan</p> <p style="margin-left: 40px;">ichi qora</p> <p style="margin-left: 40px;">yerga urmoq</p> |
|--|--|

istarasi issiq

turqi sovuq

dimog‘i chog‘

kayfi buzuq

do‘ppisini osmonga otdi

tepa sochi tikka bo‘ldi

Keyin yangi mavzuni mustahkamlash uchun ikkita guruhga savol va tiopshiriqlar bilan murojat qilamiz.

Savollar umumiy tarzda beriladi.

1. Ibora deganda nimani tushunasiz?

Guruh a‘zolari o‘zlarining mustaqil fikrlarini bildiradi.

Ma‘nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

2. Quyidagi iboralarni gap ichida keltiring va ularning qaysi so‘zlarga teng kelishini ayting .

Qo‘li kaltalik qildi, yeti o‘lchab, bir kesdi, mum tishlab qoldi.

Bu savolga javob olish uchun yuqoridagi iboralarning har biri alohida yozilgan oq qog‘ozlar guruhlariga tarqatiladi. O‘quvchilar ular ishtirokida gap tuzib, unga teng kelgan so‘zlarni topadi.

Qaysi guruh tez va to‘g‘ri bajarsa g‘olib sanaladi va o‘sha guruh rag‘batlantiriladi.

Namuna:

Qo‘li kaltalik qildi – imkoniyat yo‘qligi.

Mablag‘imiz kamligi uchun bu ishni qilishga qo‘limiz kaltalik qildi. – Mablag‘imiz kamligi uchun bu ishni qilishga imkoniyatimiz bo‘lmadi.

Yeti o‘lchab, bir kesdi - ehtiyotkorlik bilan bajarish.

Bu ishni bajarishda shoshma, , yeti o‘lchab, bir kes. - Bu ishni bajarishda shoshma, nihoyat ehtiyotkorlik bilan bajar

Mum tishlab qoldi – mutlaqo gapira olmaslik.

“Nimaga mum tishlab qolding ? Ichingdagini ayt.” – “Nimiga gapirmaysan? Ichingdagini ayt.”

O‘quvchilar yozgan misollarini taqqoslab, ular o‘rtasidagi ma’nolarni izohlasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5-sinf o‘quvchilarida ko‘rgazmalilikning ahamiyati katta. Ghunki ularning yosh xususiyatlari shuni taqazo qiladi. Ko‘rgazmali vosita asosida tushuntirish ham ko‘rish orqali, ham eshitish orqali xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ko‘rgazmali vositalar jadval, sxema yoki biror rasm tasviri asosida bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi savol javobdan so‘ng mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida ekranga iboralarni ifodalovchi rasmlar chiqariladi.

Guruh a’zolari rasmga qarab iboralarni topadi va izohini beradi, qo‘shimcha ravishda gaplar tuzadi. Rasm.

“Chaqqonlar” guruhi:

Tepa sochi tikka bo‘ldi – birdan jahli chiqmoq ma’nosini beradi.

Bu holatni ko‘rib ukamning tepa sochi tikka bo‘ldi.

“Topqirlar ” guruhi:

Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi – umidi puchga chiqmoq, hafsalasi pir bo‘lmoq.

Ahmadjon qishloqdan tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib qaytib keldi.

Yangi mavzu mustahkamlangandan so‘ng g‘olib komandalar aniqlanib, ular rag‘batlantiriladi. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar ham 5 ballik tizimda baholanadi.

O‘quvchilarni darslarda baholab, rag‘batlantirishning ahamiyati juda katta. Chunki bunda o‘quvchilarning darsga qiziqishi yanada ortadi, o‘z ustida ko‘proq ishlaydi. Darsda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar ham ularga yetishishga harakat qiladi.

Dars oxirida 539-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

539-mashq. Uyga topshiriq .Quyidagi iboralarning ma'nosini aytib bering. Ular ishtirokida gap tuzing.

Belni bog'lamoq –

Do'ppisini osmonga otmoq –

Tirnoq ostidan kir qidirmoq –

Ko'kka ko'tarmoq –

Tomdan tarasha tushganday–

Belni bog'lamoq – biron ishni bajarishga shaylanmoq, astoydil kirishmoq va ahd qilmoq kabi ma'nolarni bildiradi.

Agar biz belni bog'lab ishlamasak, mo'l hosil ololmaymiz.

Do'ppisini osmonga otmoq – biron narsadan yoki biron voqeadan judayam hursand bo'lmoq, quvonmoq ma'nolarini bildiradi

Agar bugun men 5 baho olsam judayam do'ppimni osmonga otaman.

Tirnoq ostidan kir qidirmoq iborasi yomon niyat bilan deyarli aybi yo'q kishining faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq ma'nosini bildiradi.

Ba'zi odamlar borki, faqat birovning tironog'idan kir qidiradi.

Ko'kka ko'tarmoq iborasi biron kishini ortiq darajada maqtamoq ma'nosini bildiradi.

O'qituvchimiz Hilolani yaxshi dars qilib kelganligi uchun ko'klarga ko'tardi.

Tomdan tarasha tushganday iborasi biror voqea-hodisaning qo'qqisidan, kutilmagan holda va qo'pol tarzda bajarilganini bildiradi.

Kecha biznikiga Nargiza tomdan tarasha tushganday kelib qoldi.

Iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmaridan farqini o‘tish metodikasi.

Iboralar bir necha so‘zdan tashkil topgan birikma hisoblanib, tuzilishi jihatdan qo‘shma so‘z yoki so‘z birikmalariga o‘xshaydi. Lekin iboralar qo‘shma so‘z ham emas, so‘z birikmasi ham emas, ulardan keskin farq qiluvchi ajralmas birikmadir.

Qo‘shma so‘zlar ikkita mustaqil so‘zning birikishidan hosil bo‘lib, bitta so‘roqqa javob bo‘ladi. Qo‘shma so‘zning qismlari shu birikuvda o‘zining ma’nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotadi. Ana shu yo‘qolgan ma’nolar evaziga yangi ma’no anglatadi. Masalan, *belbog‘*, *qo‘lqop* – qo‘l ham emas, qop ham emas, balki ana shu yo‘qolgan ma’nolar evaziga hosil bo‘lgan uchinchi ma’no – buyumdir.

Iboralar ham xuddi shunga o‘xshash bir necha so‘zning birikishidan hosil bo‘lib, bitta so‘roqqa javob bo‘ladi. Lekin iboralar ko‘chma ma’noga egaligi bilan qo‘shma so‘zdan farq qiladi. Qo‘shma so‘z esa ko‘chma manoga ega bo‘lmaydi. Iboralar qo‘shma so‘zga nisbatan ta’sirliroq, ifodaliroqdir. Masalan, *bodomqovoq* – qo‘shma so‘z, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, o‘z ma’nosida ; *istarasi issiq* – ibora , qanday so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ko‘chma ma’noda. Bunda *istarasi* so‘zining ko‘chma ma’noda kelishi bilan ibora hosil bo‘lmoqda.

Shuningdek, iboralar tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga ham o‘xshash ketadi. Lekin so‘z birikmasining tarkibidagi so‘zlar har biri mustaqil so‘z bo‘lib, tobe-hokim munosabatiga ega bo‘ladi va hokim so‘zdan tobe so‘zga so‘roq beriladi. So‘z birikmasi nutq jarayonida hosil bo‘ladi. Iboralar esa bitta so‘roqqa javob bo‘ladi, nutq jarayoniga tayyor holda kirib keladi. Masalan, qizil qalam – so‘z birikmasi, qalam-hokim so‘z, qizil-tobe so‘z. So‘roq hokim so‘zdan tobe so‘zga beriladi. Qanday qalam?

Tili zahar – ibora , qanday ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, so‘z birikmasi o‘z ma‘noli birikma bo‘lib, so‘roq hokim so‘zdan tobe so‘zga qarab beriladi. Ibora ko‘chma ma‘noli birikma bo‘lib, tarkibidagi hamma so‘zlar bitta so‘roqqa javob bo‘ladi.

Demak, iboralar til birligi, so‘z birikmasi esa nutq birligi hisoblanadi.

O‘quvchilarga iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqlashni tushuntirish uchun darslikda keltirilgan quyidagi topshiriqqa murojaat qilamiz. Topshiriqni o‘qituvchi hamkorligida o‘quvchilar bajaradilar.

Topshiriq. Berilgan misollarni so‘z birikmalari, qo‘shma so‘zlar va iboralarga ajrating: *og‘zi qulog‘ida, og‘zining chekkasi, otquloq, chap bermoq, burnidan ip o‘tkazmoq, ipning uzunligi, toshbaqa, temir yo‘l.*

Dastlab o‘quvchilar berilgan misollarni ibora, so‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlarga ajratib, keyin ularni izohlaydilar.

Iboralar: *og‘zi qulog‘ida, burnidan ip o‘tkazmoq:*

So‘z birikmalari : *og‘zining chekkasi, ipning uzunligi.*

Qo‘shma so‘z: *otquloq, chap bermoq, toshbaq, temir yo‘l.*

Og‘zi qulog‘ida – ibora , qanday ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, xursand so‘ziga teng keladi.

Burnidan ip o‘tkazmoq – ibora, nima qilmoq? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, o‘zining yo‘liga yurgizmoq birikmasiga to‘g‘ri keladi.

Og‘zining chekkasi – so‘z birikmasi, moslashuv yo‘li bilan birikkan, nimaning chekkasi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Ipning uzunligi — so‘z birikmasi, moslashuv yo‘li bilan birikkan, nimaning uzunligi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Otquloq – qo‘shma so‘z, ikkita mustaqil so‘zning birikishidan hosil bo‘lgan, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Chap bermoq – qo‘shma so‘z, qo‘shma fe‘l, nima qilmoq? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Toshbaqa - qo‘shma so‘z, ikkita mustaqil so‘zning birikishidan hosil bo‘lgan, nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Temir yo'l – qo'shma so'z. Ba'zan qo'shma so'zlar tashqi tomondan bog'li-turg'un, barqaror birikma xarakteriga ega bo'ladi.⁹ *Temir yo'l* – temirdan qilingan yo'l emas, shartlangan.

Bu topshiriqni bajarishda sinfdagi o'quvchilarning mustaqil fikri so'raladi. Ular so'zlarga savol berish orqali, ularning ma'nolari izohlash orqali qaysi so'z ibora, qaysi so'z qo'shma so'z va qaysi biri so'z birikmasi ekanligini topadi.

Topshiriqni bajarishda o'quvchilar ibora, qo'shma so'z va so'z birikmasining o'zaro farqli tomonlari haqida tasavvur hosil qiladilar. Chunki bajarish jarayonida faol ishtirok etib, umumiy tushunchalarga ega bo'ladi. Shu umumiy tushuncha va xulosalarni mustahkamlash maqsadida yangi mavzuni tushuntiramiz.

Yangi mavzu bayonini ko'rgazmali qurol vositasida beramiz.

Iboralar ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topganligi bois qo'shma so'z va so'z birikmalariga o'xshaydi, lekin ular ko'chma ma'noga ega ekanligi, ta'sirchanligi bilan qo'shma so'zlardan; barqarorligi, nutqqa tayyor holda olib kirilishi bilan so'z birikmalaridan farqlanadi.

Solishtiring. Iboralar : *tepa sochi tikka bo'lmoq – achchiqlanmoq, qovog'idan qor yog'moq – xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochmoq – sevinmoq;*

So'z birikmalari : *uzun sochli, qalin qovoq, uyga ketmoq;*

Qo'shma so'zlar: *To'ytepa, laylakqor, bodomqovoq.*

Yangi mavzu qay darajada o'zlashtirilganligini savollar berish asosida tekshirilib

ko'riladi, bordi-yu biror noaniqlik yoki chalkashlik mavjud bo'lsa o'qituvchi tomonidan bartaraf qilinadi.

O'quvchilarning olgan nazariy ma'lumotlarini yanada mustahkamlash maqsadida 540-mashqni bajaramiz.

⁹ O'zbek tili grammatikasi.I-tom. Morfologiya, "FAN" nashriyoti, Toshkent-1975, 35-bet.

540 – mashq. Matnni o‘qing , ajratilgan birliklarning ibora, so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘z ekanligini aniqlang.

Bu mashqni o‘quvchilar og‘zaki bajarishadi. Dastlab mashqda keltirilgan hikoya o‘quvchilarning biriga ifodali o‘qitiladi.

So‘ng o‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan birliklarning ibora, qo‘shma so‘z, so‘z birikmalariga ajratadi.

Ikki bola bog‘da o‘ynardi. Ular tasodifan yerda yotgan *yong‘oqni ko‘rib qolishdi*.

– Bu *mening yong‘og‘im*, – deb birinchi bola unga *qo‘l uzatdi*.

– *Toshingni ter*,– dedi ikkinchi bola unga o‘dag‘aylab. – Yong‘oqqa birinchi bo‘lib mening *ko‘zim tushdi*. Demak, bu yong‘oq meniki! Tortishuv davom etdi.

Shu payt ular uchinchi bolani ko‘rib qolishdi va *yordam so‘rashdi*. *Uchinchi bola* o‘ylanib o‘tirmay, yerdan tosh olib yong‘oqni chaqdi. Uni ikkiga bo‘lib, po‘chog‘ini bolalarga uzatdi. O‘ziga esa mag‘zini oldi.

Xulosa: *Ikki kishi tortishsa*, foydani uchinchi odam ko‘radi. (*Hikoyat*)

Ibora	so‘z birikmasi	qo‘shma so‘z
Toshingni ter	yong‘oqni ko‘rib qolishdi	qo‘l uzatdi
Ko‘zim tushdi	mening yong‘og‘im	shu payt
	Uchinchi bola	yordam so‘rashdi
	Ikki kishi	

Bu mashqni bajarishda siunfdagi o‘quvchilar uch guruhga ajratilib, birinchi qatoriga matndagi iborani topish, ikkinchi qatordagi o‘quvchilarga so‘z birikmasini, uchinchi qatordagi o‘quvchilarga qo‘shma so‘zlarni topish vazifasi yuklanadi. O‘quvchilar ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarni topib, ularni izohlaydi hamda farqli tomonlarini aytadi.

Undan so‘ng keltirilgan hikoya nima haqida ekanligi, uning g‘oyasi, mazmuni to‘g‘risida o‘quvchilar bilan biroz suhbat o‘tkazamiz va mustaqil fikrlashi, og‘zaki nutqini rivojlantirish maqsadida ularning fikrlarini so‘raymiz.

Keyin hikoya g'oyasini o'qituvchi xulosalab, darsning tarbiyaviy maqsadi (o'quvchilarga do'stlari bilan tortishish, janjallashish yomon odat ekanligini uqtirish)ni o'quvchilar ongiga singdiradi.

Bu mashqni bajarish orqali o'quvchilar iboralar, so'z birikmasi va qo'shma so'zlarning farqlarini yanada yaxshi bilib oladi. Shuningdek mashqda keltirilgan hikoya g'oyasi ularning tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda ular (ibora, qo'shma so'z, so'z birikmasi)ning imlosini ham eslatamiz, chunki har qanday dars orfografiya bilan bog'lab olib borilishi kerak.

Bu mashqning shartida o'quvchilarga matnda ajratib ko'rsatilgan birliklarning ibora, so'z birikmasi yoki qo'shma so'z ekanligini aniqlash vazifasi yuklatilgan bo'lsa, quyidagi mashqda esa keltirilgan birliklarni ibora, so'z birikmasi va qo'shma so'zlarga ajratib, ular o'rtasidagi farqlarni tushuntirish va ma'nosini izohlash vazifasi berilgan.

541-mashq. Quyidagi birliklarni ibora, so'z birikmasi va qo'shma so'zga ajratib yozing. Ular o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.

O'pkasini cho'pga ilmoq, asalari, asal yalamoq, kaltafahm, uzun yo'l, kovushini to'g'rilab qo'yimoq, qo'li uzun, to'g'riso'z, so'zning yaxshisi, mehnatkash inson, mehnatsevar.

Bu mashqni sinfni uchta guruhga bo'lib, musobaqali tarzda bajaramiz. Dastlab guruhlariga nom beramiz. Birinchi guruh "Iboralar", ikkinchi guruh "Qo'shma so'z" va uchinchi guruh "So'z birikmasi" kabi nomlar bilan ataladi. Birinchi guruh iboralarni, ikkinchi guruh qo'shma so'zlarni, uchinchi guruh esa so'z birikmalarini yozishi kerak. Sinf taxtasini uchga bo'lamiz. Har bir guruhdan vakil chiqib, darslikda keltirilgan birliklardan o'ziga tegishli birliklarni topib yozadi va farqlarini tushuntiradi. Darslikda keltirilgan birliklardan tashqari o'zlari qo'shimcha ravishda misollar ham topishi mumkin. Bu o'yinda vaqt belgilanib, tez va to'g'ri yozgan guruh g'olib sanaladi. G'olib bo'lgan guruh rag'batlantiriladi.

Ibora	Qo'shma so'z	So'z birikmasi
o'pkasini cho'pga ilmoq	asalari	asal yalamoq
kovushini to'g'rilab qo'ymoq	kaltafahm	uzun yo'l
qo'li uzun	to'g'riso'z	so'zning yaxshisi
oq ko'ngil inson	mehnatsevar	mehnatkash
ko'z yumdi	guldasta	katta maktab

Bu mashqni musobaqali bajarishning ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilarni darsga yanada qiziqishga, yanada faollikka undaydi. Ularning bilimlarini ham charxlaydi. Hamda darsda o'rinsiz zerikish holati bo'lmaydi.

Ibora, qo'shma so'z, so'z birikmalari haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida 542-mashq bajartiriladi.

Mashq. Gaplarni o'qing, tagiga chizilgan birliklarni ibora, so'z birikmasi va qo'shma so'zga ajratib yozing.

Bu mashqni o'quvchilar yozma bajarishadi. Shuningdek o'quvchilarni sinf taxtasi yoniga chiqarib, bajartirishimiz ham mumkin. Ular gaplarni yozib, tagiga chizilgan so'zning qaysi birlikka tegishli ekanligini aytib, izohlaydilar. Daftarlari yozganda izohini qavs ichida yozib ketadi.

1. Dunyoni yaxshi odamlar ushlab turadi, degan ko'hna ibora bor. (A. Ko'chimov)
(yaxshi odamlar, ko'hna ibora – so'z birikmasi)
2. Yeng shimarib ishga tushilaversa, hammasi bajarilaverar ekan. (Asqad Muxtor)
(yeng shimarib – ibora , hammasi bajarilaverar ekan – so'z birikmasi)
3. Ikkalasi bir tomoni kuyib, qovjirab ketgan mallarang qumtepalar orasida serrayib turib qolishdi. (Aziz Abdurazzoq)

(mallarang qumtepalar – alohida olsak qo‘shma so‘z, birgalikda so‘z birikmasi; serrayib turib qoldi – so‘z birikmasi)

4. Umr degan narsa ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketar ekan. (Mirmuhsin)

(ko‘z ochib yumguncha – ibora)

5. Insonning ma’naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi.

(Sh. Uzoqov)

(Insonning ma’naviyati – so‘z birikmasi; irodasi ham kuchayib boradi – gap)

Bu mashqni yozma ravishda bajartirishdan asosiy maqsad o‘quvchilarning savodxonligi va yozma nutqini yanada rivojlantirishdir.

Mashqni bajarib bo‘lganimizdan so‘ng yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga savol va topshiriqlar bilan murojaat qilamiz.

Savollar umumiy tarzda beriladi.

1. Iboralar qaysi belgisiga ko‘ra qo‘shma so‘z va so‘z birikmasiga o‘xshaydi ?

Iboralar tuzilishi jihatdan qo‘shma so‘z va so‘z birikmasiga o‘xshaydi.

2. Iboralardagi barqarorlik va ta’sirchanlik deganda nimani tushunasiz ?

Iboralar ko‘chma ma’noli birikma bo‘lib, barqaror birikmalr hisoblanadi. Chunki tarkibidagi so‘zlar bo‘laklarga ajratilmaydi, hammasi bitta so‘roqqa javob bo‘ladi. Obrazli ma’noga ega bo‘lganligi uchun nutqni ta’sirchan qiladi.

3. *Qattiqqo‘l, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artmoq, qo‘lqop* so‘zlarining nima sababdan ibora, qo‘shma so‘z va so‘z birikmasiga ajratilishini izohlang.

Qo‘lqop – so‘zlari qo‘shma so‘zlar bo‘lib, ular ikkita mustaqil so‘zning birikishidan hosil bo‘lgan o‘z ma’noli birikma hisoblanadi.

Qattiqqo‘l, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artmoq – birikmalari ibora bo‘lib, bir necha so‘zning birikishidan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’noli birikmalardir.

Darsni yanada mustahkamlash maqsadida sinf taxtasiga quyidagi ko‘rgazmali qurol ilinadi.

Iboralar		
Iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqi		
Iboralar	<i>tildan bol tomadi, ko‘klarga ko‘tarmoq.</i>	
Qo‘shma so‘zlar	<i>oshxona, qo‘ziqorin. otquloq, karnaygul.</i>	
So‘z birikmasi	<i>Mening ukam, maktabning bog‘i, qizil qalam.</i>	

Keyin o‘quvchilarni qatorma –qator qilib yuqoridagidek uch guruhga bo‘lamiz. Guruhdagi har bir partaga ibora, qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari yozilgan varaqchalar aralastirilib tarqatiladi. O‘quvchilar varaqqa yozilgan birikmalarning iborami, qo‘shma so‘z yoki so‘z birikmasimi ekanligini aniqlab, ular ishtirokida gap tuzadi va ko‘rgazmali quroldagi birikmaning qaysi biriga tegishli bo‘lsa o‘shaning yoniga qog‘ozni tezlik bilan yopishtirib chiqadi.

Tez va to‘g‘ri bajargan guruh g‘olib sanaladi va rag‘batlantiriladi.

Darsni mustahkamlab bo‘lgach darsda faol qatnashgan guruhlar bilan birgalikda, faol qatnashgan o‘quvchilar ham baholanadi.

Keyin 543- mashqni uyga vazifa qilib beramiz.

543-mashq. Uyga topshiriq. Matnni o‘qing, ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarni aniqlab, ularga izoh bering.

Ko‘ksaroy oromgohi va unga tutash tog‘-adirlar o‘simliklar dunyosiga g‘oyatda boy bo‘lib, bu yerdagi giyohlardan yuzga yaqin shifobaxsh dori-darmonlar

tayyorlanadi. Bunday orombaxsh, mo'jizakor maskanlarda sayr qilish inson tanasini qushday yengil qiladi, ruhini ko'taradi, salomatligini mustahkamlaydi. (S. Anorboyev)

Ibora: qushday yengil qiladi, ruhini ko'taradi ;

Qo'shma so'z : ko'ksaroy;

So'z birikmasi: ko'ksaroy oromgohi, o'simliklar dunyosi, shifobaxsh dori-darmonlar, mo'jizakor maskanlar, inson tanasi.

Qushday yengil qiladi – ibora, nima qiladi ? so'rog'iga javob bo'ladi, ma'nosi yengil tortmoq so'ziga teng keladi;

Ruhini ko'taradi - ibora, nima qiladi ? so'rog'iga javob bo'ladi, ma'nosi ruhiy tushkunlikdan qutqarmoq so'ziga teng keladi;

Ko'ksaroy – qo'shma so'z, nima? so'rog'iga javob bo'ladi, ikkita mustaqil so'zning birikishidan hosil bo'lgan;

Ko'ksaroy oromgohi, o'simliklar dunyosi, inson tanasi – bu birikmalar so'z birikmasi bo'lib, hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, moslashuv yo'li bilan birikkan;

Shifobaxsh dori-darmonlar, mo'jizakor maskanlar – bu birikmalar ham so'z birikmasi bo'lib, hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, bitishuv yo'li bilan birikkan;

Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlarni o‘tish metodikasi.

O‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini yanada o‘stirish maqsadida bu mavzu bo‘yicha darslikdagi materialga qo‘shimcha tarzda quyidagi mashq va o‘yin –topshiriqlardan foydalanish mumkin. Ayni paytda o‘quvchi charchamasligi, zerikmasligi, qiziqish bilan faoliyatga kirishishi kerak. Bu jarayonga o‘yin(grammatik o‘yin) yo‘li bilan kirishish o‘quvchilar tabiatiga juda mos keladi. Chunki o‘yin o‘quvchining eng sevimli mashg‘uloti, hayotida asosiy o‘rinni egallaydi. Ana shu imkoniyatni foydali tomonga, maqsad sari yo‘naltirish zarur.

Demak, quyida tavsiya qilinayotgan mashq va o‘yin –topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan mustaqil bajariladi. So‘ngra barcha o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinadi.

1- Topshiriq. Chap ustundagi iboralarning zid ma’nologini o‘ng ustundan toping. Bu topshiriqni o‘quvchilarga **“Yo‘lni to‘g‘ri tanla” o‘yini** orqali bajartiramiz.

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| 1) tilidan bol tomni | 1) gapida turadi |
| 2) qo‘li baland | 2) esiga keldi |
| 3) ko‘kka ko‘tardi | 3) dimog‘i chog‘ |
| 4) og‘zi bo‘sh | 4) tili zahar |
| 5) so‘zidan qaytdi | 5) bag‘ridan itardi |
| 6) yodidan ko‘tarildi | 6) turqi sovuq |
| 7) ichi qora | 7) qo‘li kalta |
| 8) kayfi buzuv | 8) og‘zi mahkam |
| 9) qo‘ltig‘iga oldi | 9) og‘zi mahkam |
| 10) istarasi issiq | 10) qalbi toza |

2 – Topshiriq. Berilgan sharhga qarab iboralarni toping.

- 1) Biror gapni bexosdan – *tomdan tarasha tushganday aytmoq.*
- 2) Bo‘rttirib yubormoq – *pashshadan fil yasamoq.*
- 3) Aybsizdan ayb topmoq – *qildan qiyiq qidirmoq.*

- 4) Ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida oldindan gapirib yurmoq – *to'ydandan oldin nog'ora qoqmoq, podadan oldin chang chiqarmoq.*
- 5) Befoyda sarflamoq – *suvga oqizmoq.*
- 6) Qaysarlik qilmoq – *oyog'ini tirab olmoq.*
- 7) Sustkash, loqayd odam – *tepsa – tebranmas.*
- 8) Ruhan azoblanmoq – *o'z yog'iga o'zi qovurilmoq.*
- 9) Gangib qolmoq – *o'zi i yo'qotib qo'ymq.*
- 10) Jahli chiqdi – *tepa sochi tikka bo'ldi.*
- 11) Xursand bo'ldi – *dimog'i chog' bo'ldi.*
- 12) Qaysarlik qildi – *to'nini teskari kiyib oldi.*
- 13) Qayoqqa xohlasa ketaversin – *To'rt tomoni qibla.*
- 14) Kamroq mizg'ib oldi – *ko'zi ilindi.*
- 15) Hurmatlamoq – *boshiga ko'tarmoq.*

3- Topshiriq. Iboralarda noto'g'ri qo'llangan so'zlarning to'g'risini toping. Bu topshiriqni **“Xatoni toping” o'yini** orqali bajartiramiz.

O'n qo'l baravar emas. Labi **tishiga** tegmaydi. **Qo'lga** oyoqni olib chopdi. Miyasini qoqib **stolga qo'ydi**. Mushugini **“kisht”** demaydi. Ninaday gapni **tayoqday** qildi. Ikki oyog'ini **ikki** etikka tiqdi.

4- Topshiriq. Qo'l, bosh, bir so'zlari ishtirokida ko'proq iboralar yozing.

Bir (bir og'iz, bir-iki og'iz, bir-iki shingil, bir kun bo'lmasa – bir kun, bir oyog'I yerda, bir oyog'I go'rda va hk);

Qo'l (qo'li uzun, qo'li kalta, q'oli yetadi, qo'li baland, qo'li bormadi, qo'lidan keldi, qo'li egri, qo'li ochiq, q'olini ko'tardi va hk) ;

Bosh (bosh egdi, bosh qo'shdi, boshini qashladi, boshini achitdi, boshini xam qildi, boshini yedi, boshiga ko'tardi, boshidan oshib yotibdi va hk);

5- Topshiriq. Frazelogik lug'atdan hayvonlar nomi ishtirok etgan iboralarni toping.

Dars jarayonida o'quvchilarga uy hayvonlarining inson bilan birgalikda hayot kechirishi, inson bilan yaqinlik munosabatlari ularning nomlarini ifodalovchi

soʻzlar ishtirokida qator iboralarning shakllanganligi, yovvoyi hayvonlar nomlarini ifodalovchi leksemalarni simvallashtirish hisobiga salbiy maʼno ifodalovchi iboralar shakllanganligi haqida ham maʼlumot berib oʻtish darkor.

It yotish, mirza turish; it azobida; itdan olib, itga solmoq; olinmagan buzoqqa qoziq qoqmoq; buzoqning yugurgani somonxonagacha; pashshadan fil yasamoq; qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan; tuya koʻrdingmi –yoʻq; otdan tushsa ham, egardan tushmaydi; ishi bitdi, eshagi loydan oʻtdi; ilonning yogʻini yalagan; tulkilik qilmoq;

6 -Topshiriq.

1. Soʻzlarga teng keladigan iboralar toping: ...sevindi, ... befoyda, ... ranjidi, ... tortishuv, ... unutmok.

Javob: Shodligi ichiga sigʻmaydi, shamolga uchirmoq, ensasi qotdi, “senmen”ga bormoq, esidan chiqarmoq.

2. “Kapalagi uchib ketdi”, “Katta ketdi” iboralarining sinonimini toping.

“Qoʻrqib ketdi”, “Oʻtakasi yorildi”; “Katta gapirdi”.

Yana: “Oq koʻngil” – “Koʻngli toza”; “Ogʻziga olmoq” – “Tilga kelmoq” kabi.

Oʻquvchilar nutqini badiiy boʻyoqdor feʼllar bilan boyitishda **“Maʼnosini kim chaqdi?”** oʻyinini qoʻllasa boʻladi. Bunda dastlab oʻquvchilarni ikki guruhga boʻlib, **“Bilagʻonlar”** va **“Topqirlar”** deb nom beramiz. Musobaqalashayotgan birinchi qatordagi oʻquvchilar frazeologik birikmalar bilan almashtirish mumkin boʻlgan feʼllarni aytadi, ikkinchi qatordagi oʻquvchilar esa shu feʼlni frazeologik birikma bilan almashtirishlari kerak. Masalan,

I qator	II qator
Gapirmadi —	ogʻziga talqon soldi
Quvondi —	doʻppisini osmonga otdi
Gʻazablendi —	tepa sochi tikka boʻldi.

O'ldi —	joni uzildi, qazo qildi.
Tushundi —	mag'zini chaqdi.
Charchadi —	tinkasi quridi.
Uxlamadi —	mijja qoqmadi.
Qo'rqdi —	yuragi dov bermadi.
Ajablandi —	yoqasini ushladi.
Aralashdi —	bosh qo'shdi.
Ochqoldi —	qorni piyozning po'stiday bo'ldi.
Uylandi —	boshi ikkita bo'ldi.
O'ldirdi —	boshini yedi.
Yutqazdi —	boy berdi.
Kutilmaganda —	tomdan tarasha tushganday.
Uxladi —	ko'zi ketdi, ko'zi ilindi.
Maqtanadi —	aravani quruq olib qochadi.
Achchiqlandi —	fig'ono falakka ko'tarildi.
Esankiramoq —	hushini yo'qotmoq.
Uyalmasdan —	qaysi yuz bilan.
Hurmatlashdi —	o'tqazgani joy topolmadi.

Xuddi shu o'yinning boshqa turida har bir frazeologik birikmani ma'nodoshi bilan almashtirish talab qilinadi.

I qator	II qator.
Do'ppisini osmonga otdi	— boshi osmonga yetdi.
Og'ziga talqon soldi	— "lom-mim" demadi.
Joni uzuldi	— olamdan o'tdi.
Yoqasini ushladi	— hayratda qoldi.
Yuragi shuv etib ketdi	— yuragi orqasiga tortib ketdi.
Mijja qoqmadi	— ko'z yummad.
Yuragini hovuchlab	— jonini hovuchlab.
Qo'ldan bermoq	— boy bermoq.

Yuzaga chiqmoq	—	ro'yobga chiqmoq.
Esi og'di	—	aqldan ozdi.
Shamolga uchmoq	—	zoye ketmoq.
Shovqin solmoq	—	boshiga ko'tarmoq.
Ta'bi xira bo'ldi	—	ta'bi tirriq bo'ldi.
Og'zi bormadi	—	tili bormadi.
Oila qurmoq	—	bir yostiqqa bosh qo'ymoq.

7-topshiriq. Quyidagi keltirilgan so'zlarga antonim bo'lgan iboralar toping.

Xafa – og'zi qulog'ida;

Eski – ohori to'kilmagan;

Xotirjam – yuragiga g'ulg'ula tushdi;

Yuvosh – yerga ursang ko'kka sapchiydi;

Gapirdi – lom - mim demadi.

8 –topshiriq. Berilgan gaplardagi tushirib qoldirilgan iboralarning mosini qo'yib, daftaringizga yozing.

1. Undaylarni oson emas. 2. Buni Burxon otamdan so'raysiz. U kishi hammasini gapirib beradilar. 3. Qudratning o'z tashvishlari (H. Nazir) 4. Qudrat unga gap uqtirish ekanini sezdi. (H. Nazir) 5. Hamma jihatdan yordam beramiz ishga tushavering. (A. Abduqahhor)

Iboralar: boshidan oshib yotibdi, yer bilan yakson qilmoq, suvga oqizmoq, belni mahkam bog'lamoq, miridan –sirigacha.

9 – topshiriq. To'rtliklarni o'qing. Iboralarni topib, uslubiy hususiyatlarini tushuntiring.

1. Bilaman, ta'rifing so'zga sig'maydi,

Go'zallik haqida gap sotmoq bekor.

Dildagi husndan andoza olgan —

Go'zalliging qalbni etadi takror.

2. Yurak og'rir, sezdirmaydi til,

Jism magʻrur, boʻzlaydi koʻngil
 Bu keng dilga sigʻolmaydi qil
 Men kutgan kun, sen kelmagan kun.

3. Bir kun koʻzlarimdan qochdi uyqular,
 Bir kun yuragini ochdi tuygʻular...
 Men seni esladim entikib, yonib,
 Men seni izladim baridan tonib.
 Sen ilk muhabbatim, vafoli yorim,
 Sensiz qoʻshigʻimni aytolmadim men.

4. Yangi tong, doʻstginam, boshlanmay turib,
 Ushbu tun bagʻriga birpas tut quloq.
 Bu tunning bagʻrida gʻofil boʻlinmas,
 Bu tunning bagʻrida baxting bor oppoq.

Bu topshiriqni oʻquvchilarga ogʻzaki bajartiramiz. Ular toʻrtliklarda keltirilgan iboralarni topib, uslubiy xususiyatlarini tushuntiradi.

Birinchi toʻrtlikda quyidagi iboralar qatnashgan: *soʻzga sigʻmaydi* – *beqiyos*, *gap sotmoq* – *sergap* leksemasi ifodalagan maʼnoga teng. *Soʻzga sigʻmaydi* badiiy

uslubga xos, *gap sotmoq* esa koʻproq ogʻzaki nutqda ishlatiladi. Ular koʻchma maʼnoda qoʻllanadi.

Ikkinchi toʻrtlikda esa *boʻzlaydi koʻngil*, *bu keng dilga sigʻolmaydi qil* iboralari qatnashga boʻlib, ikkilasi ham badiiy uslubga xos. *Bu keng dilga sigʻolmaydi qil* - iborasi ruhan ezilib, hech narsa yoqmaslik maʼnolarini bildiradi.

Uchinchi toʻrtlikda *koʻzlarimdan qochdi uyqular*, *yuragini ochdi tuygʻular* iboralari qatnashgan, ular badiiy uslubga xos.

Toʻrtinchi toʻrtlikda *tun bagʻri*, *tut quloq* iborasi qatnashgan boʻlib, ular ham badiiy uslubga tegishlidir.

10-topshiriq. Quyidagi keltirilgan iboralarning qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanligi ayting.

Yerga urmoq, qoʻli egri, ichi qora, pixini yorgan, terisiga sigʻmay ketdi, yer bilan yakson qilmoq, koʻzi ilindi, bagʻri tosh, tili bir qarich, bagʻri toʻldi, oq-qorani tanidi

Yerga urmoq, terisiga sigʻmay ketdi, yer bilan yakson qilmoq, koʻzi ilindi, bagʻri toʻldi, oq-qorani tanidi – bu iboralar feʼl soʻz turkumiga tegishli;

Qoʻli egri, ichi qora, pixini yorgan, bagʻri tosh, tili bir qarich – kabilari esa sifat soʻz turkumiga tegishli hisoblanadi.

Bu topshiriqni bajarishda oʻquvchilar iboralarga savol berish orqali ularning qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanligini aniqlashadi. Topshiriqni bajartirish orqali oʻquvchilarda sintaksis boʻlimiga oid bilimlar hosil qilishga poydevor yaratamiz.

Tarqatma materiallar bilan ishlash.

Bunda koʻzda tutiladigan maqsad mavzu boʻyicha (yuzasidan) oʻquvchilar bilimlarini aniqlash, nutq malakalarini tekshirish, tafakkurlarini oʻstirish, oʻz fikrlarini dalillar asosida bayon qila olish koʻnikmalari darajasini aniqlashdir.

1 – kartochka.

Boshi osmonga yetdi, ogʻzi ochilib qoldi, tepa sochi tikka boʻldi .

Bu iboralariga teng kelgan soʻzlarni toping va ularning maʼnosini izohlang

2 – kartochka.

Qoʻli egri, qoʻlqop, qoʻlidan ushlamoq.

Keltirilgan birliklarni soʻz birkmasi, ibora va qoʻshma soʻzlarga ajrating va ularni izohlang.

3 – kartochka.

Yerga urmoq, ichi qora, turqi sovuq.

Keltirildan iboralarga antonim bo‘lgan iboralar toping va ularni taqqoslang.

4 – kartochka.

Tuyaning dumi yerga yetganda qarzini to‘laydi.

Berdisini aytguncha jim tur.

Ushbu gaplardagi iboralarni ajratib, ma’nosini izohlang.

5 – kartochka.

Xamirdan qil sug‘irmoq, ichini mushuk talamoq.

Keltirilgan iboralarning sinonimlarini toping va ularning ma’nosini izohlang.

6 – kartochka.

Iboralarning qo‘shma so‘zlardan farqini misollar asosida tushuntiring, keltirilgan misollarning ma’nosini izohlang.

7 – kartochka.

Shovqin qilmoq, vafot etmoq, hurmat qilmoq so‘zlariga teng kelgan iboralarni toping.

8 – kartochka.

Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, tullkiday ayyor.

Keltirilgan iboralar ishtirokida gaplar tuzing.

Shuningdek o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini o‘stirishda **“Suratli kartochka”** o‘yinidan ham foydalanishimiz mumkin. Bu o‘yinda sinf uch guruhga ajratilib, ularga suratli kartochka tarqatiladi. Sinf taxtasiga esa o‘sha suratlarga mos keladigan iboralar yozib qo‘yiladi. O‘quvchilkar kartochkalarda berilgan suratlarga qarab sinf taxtasida keltirilgan iboralarning mosini topib, ularning ma’nosini izohlaydi va shu iboralar ishtirokida bog‘liq matn tuzishadi.

Tez va to‘g‘ri bajargan guruh g‘olib sanaladi va g‘olib guruh rag‘batlantiriladi.

Bunday tarqatma materiallar bilan mustahkamlash yoki qaytarish darslarida ishlash maqsadga muvofiqdir. Bu kabi tarqatma materiallar nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ishlarni qiziqarli tashkil qilish, vaqtni tejash, ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash imkonini beradi. Shuningdek, kartochkalarda tarqoq ravishda berilgan so'zlardan gap tuzish so'z va iboralarni joyiga qo'yib, to'g'ri qo'llay bilish, ularning leksik – stilistik(uslubiy) xususiyatlarini bilgan holda sinonimik variantlari bilan almashtirish kabi topshiriqlar ham berish mumkin..

Bunday kartochkalarni o'qituvchi har qanday mavzuga mos holda tuzish mumkin. Shuni ham e'tiborga olish zarurki, biz tavsiya qilayotgan kartochkalar keyingi mavzularga asos, zamin bo'lmog'i kerak. Tayyorlanayotgan kartochkalar, albatta, bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bo'lishi zarur.

Testlar bilan ishlash .

Test usuli ta'lim tizimida nisbatan yangi. U o'quvchilar fikrlashini tezlashtiradi, ammo bunda o'quvchi muloqat qilmaydi, o'z fikrini og'zaki ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga dastlabki test topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarish imkoniyatini tug'dirish kerak bo'ladi. Chunonchi, "Iboralar" mavzusi bo'yicha ishlashda o'quvchilar e'tiborini doskaga osilgan plakatdagi test savollariga qaratiladi.

1. test. Ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplar nima deyiladi?

- A. So'z birikmasi
- B. Iboralar.
- D. Q'oshma so'z.
- E. Gap
- F. Takror so'zlar.

2. test. Qo'y og'zidan cho'p olmagan –iborasi qaysi so'zga teng keladi.

- A. Xursand

- B. Yuvosh.
- D. Xafa
- E. Sho‘x.
- F. Qaysar.

3. test. *Bodomqovoq, mening olmam. ,katta daraxt, oq ko‘ngil, qo‘li kalta, qo‘ziqorin.*

Keltirilga birliklardan iboralarni toping,.

- A. Katta daraxt, qo‘ziqorin.
- B. Oq ko‘ngil, bodomqovoq.
- D. Mening olmam, qo‘li kalta,
- E. Oq ko‘ngil, qo‘li kalta.
- F. Bodomqovoq, qo‘ziqorin.

5. test. *Javohir bu ishni bajarishda ehtiyotkorlik bilan harakat qildi.*

Ajratib ko‘rsatilgan birikmani ibora bilan almashtiring.

- A. Do‘ppisini osmonga otdi.
- B. Oyog‘ini qo‘liga olib keldi.
- D. Yetti o‘lchab, bir kesdi.
- E. Belini bog‘ladi.
- F. Mum tishlab qoldi.

6. test. Bu voqeani ko‘rib, Shaxnozaning kapalagi uchib ketdi.

Berilgan gapda iborani toping.

- A. Bu voqeani ko‘rib.
- B. Shaxnozaning kapalagi.
- D. Bu voqeani ko‘rib, uchib ketdi.
- E. Kapalagi uchib ketdi.
- F. Uchib ketdi.

7.test. Berilgan birikmalardan iborani toping.

- A. Mo‘yqalam sohibi.
- B. Qanotli do‘stlar.

- D. Katta ko‘cha.
- E. Tapa sochi tikka bo‘ldi.
- F. Shirin olmalar.

8. test. Takabbur, manman, o‘ziga bino qo‘ygan kimsalarga nisbatan qanday ibora ishlatiladi.

- A. Burni ko‘tarilgan.
- B. Og‘zi qulog‘ida.
- D. Tapa sochi tikka bo‘ldi.
- E. Ichi qora.
- F. Burnidan ip o‘tkazmoq.

Bu test savollar bir-ikki o‘quvchi tomonidan o‘qitiladi va javoblari so‘raladi. Ular o‘z javoblarini isbotlashadi. Shundan so‘ng boshqa o‘quvchilar ham o‘z javoblarini aytishib bahslashadi. Test savollariga javob topishda bunday bahs uyushtirish o‘quvchilar faolligini oshiradi, ularning og‘zaki nutqining rivojlanishida samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi kabi o‘yin –topshiriqlardan nafaqat 5 –sinfda maxsus mavzuni mustahkamlashda, balki boshqa sinflarda sifat, olmosh, fe’l kabi so‘z turkumlari ustida ishlashda ham foydalanish mumkin. Bunday mashqlar o‘quvchilarni izlanishga undaydi, darsga qiziqishini oshiradi va lug‘atlar bilan mustaqil ishlashga odatlantiradi.

3-BOB. TASVIRIY IFODALAR O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRUVCHI VOSITA.

Tasviriy ifodalar ham iboralar singari nutqimizni ta’sirchan, jozibador va ifodali qiladigan birikmalar bo‘lib, bular ham o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi asosiy vositalardan biri sanaladi.

Tasviriy ifoda — predmet, voqea va hodisani o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma hisoblanadi.¹⁰

Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomidir. Masalan, *oq oltin – paxta; oq oltin ijodkori – paxtakor ; kumush tola – pilla; zangori kema kapitani – mexanizator; o‘rmon malikasi - archa; zangori olov – gaz;*

Tasviriy ifodalar ham xuddi iboralar singari tuzilishi jihatdan, ya’ni birdan ortiq so‘zdan tashkil topishi bilan so‘z birikmasiga o‘xshab ketadi. Lekin tasviriy ifodalar nutq birligi sanalgan bunday birlikdan (so‘z birikmasidan) tamoman farq qiladi va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi. So‘zlarga xos bo‘lgan xususiyatni o‘zida mujassamlashtiradi.

Shunday ekan, tasviriy ifodalar gapda bitta so‘roqqa javob bo‘lib, bitta bo‘lak vazifasida keladi va ular so‘zlar kabi tilda tayyor holda bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tasviriy ifodalar ham nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi.

Tasviriy ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqib, lug‘at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini beradi, notiqni so‘zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifoda faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg‘a qadam qo‘yishiga to‘sqinlik qilayotgan

¹⁰ Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. Toshkent. “Akademnashr” 2011. 87-bet.

illatlarni fosh qilish, undan kulish va unga qarshi kurashishga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi.

Binobarin, tasviriy ifoda predmet, voqea-hodisaning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

So'z ma'nosining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanishi tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini oshiruvchi omildan biridir. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash – lug'at boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita. Tasviriy ifodalar ham nutqimizni jozibador qiluvchi ko'chma ma'nodagi muhim vositalar hisoblanadi.

Tasviriy ifodalar ko'proq ot va sifat so'z turkumiga mansub bo'ladi. Ular, asosan, badiiy uslubda qo'llaniladi.

Ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (aql gimnastikasi – matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo'llanishi (zangori ekran, oynai jahon – televizor) mumkin.

So'z va iboralarda bo'lgani singari tasviriy ifodalarda ham omonimiya va sinonimiya hodisalari mavjud.

Agar tasviriy ifodalar bir xil so'zlardan tashkil topib, boshqa- boshqa ma'nolarni ham ifodalab kelsa omonim tasviriy ifodalar hisoblanadi. Masalan :

Aql gimnastikasi – matematika, shaxmat, krasvord.

Shakli har xil tasviriy ifodalarning ma'no jihatdan bir xil bo'lishi sinonim tasviriy ifodalar deyiladi. Masalan:

Havo kemasi, po'lat qush – samolyot.

O'quvchilarga tasviriy ifodalar haqida ma'lumot berganimizda, ular tasviriy ifodalar haqida tasavvurga ega bo'lib, yaxshi tushunishlari uchun tasviriy ifoda qatnashgan gap va qatnashmagan gaplarni misol keltirib, ularni taqqoslash, ma'nolarini izohlash orqali o'quvchilarga tushuntirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan o'quvchilar nutqi ham rivojlantiriladi. Masalan:

Bu maydonlarga dala malikasi ekilgan. – Bu maydonlarga makkajo‘xori ekilgan.

Bu misollarni keltirishimiz orqali o‘quvchilar tasviriy ifodalar qatnashgan gaplar badiiyyoq, ta’sirchan va obrazli ekanini anglab yetishadi.

Tasviriy ifodalar 5-sinf darsligida maxsus mavzu sifatida kiritilgan bo‘lib, uzviylashtirilgan dasturda bu mavzuga 1- soat vaqt ajratilgan.

Tasviriy ifodalarni o‘tish metodikasi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinfda va 5-sinfning I- II choragida takrorlash darslarida tasviriy ifodalar haqida ma’lumot berilmagan. Tasviriy ifodalar va ularning nutqda qo‘llanishiga o‘quvchilar turli holatlarda duch kelgan bo‘lsalarda, uning mohiyati, nutqiy zaruriyati, ijtimoiy holati haqida tushunchaga ega emaslar. Shuning uchun ham an’anaga ko‘ra mavzuga atab berilgan topshiriqni bajarish jarayonida o‘qituvchi tasviriy ifodalar haqida qisman yo‘llanma berib borgani maqsadga muvofiq, ya’ni dars materialni tayyor holda bayon qilish metodi asosida olib boriladi.

Topshiriq. Quyidagi so‘zlar birikmasining ma’nosini izohlang.

O‘rmon podshosi, ko‘zimning nuri, qalbm quyoshi, zangori kema.

Bu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilarga muammoli savol bilan murojat qilib, chuqur mushohada qilish ko‘nikmasi hosil qilamiz va mustaqil fikrlashini rivojlantiramiz. O‘quvchilar oldiga qo‘yilgan qator muammoli savollarga javob berish natijasida berilga tasviriy ifodalarning ma’nosini izohlab, unga teng kelgan so‘zni topishadi.

Masalan: **O‘rmon podshosi** tasviriy ifodasini izohlashda o‘quvchilarga Podshoh kim ?, O‘rmonda ham podshoh bo‘ladimi? O‘rmon podshosi qaysi hayvon? kabi muammoli savollar berishimiz mumkin.

Bu muommoli savolga o‘quvchilar quyidagicha javob berishi mumkin.

Podshoh - biror bir davlatni, xalqni va jamiyatni boshqaruvchi kishi. U mamlakatning tinchligini, farovonligini taminlab, xalqni o'z ortidan ergashtiruvchi hukmdor.

O'rmonda ham podshoh bo'lishi mumkin. O'rmonda, asosan, yovvoyi hayvonlar va qushlar yashaydi. O'sha hayvonlarga, qushlarga boshchilik qiladigan, ularni o'z ortidan ergashtiradigan hayvonga o'rmon podshosi deyiladi. Bu hayvon sherdir. Biz buni ertaklarda o'qib, multfilmlarda ham ko'rganmiz.

Demak, o'rmon podshosi – sher.

Ko'zimning nuri tasviriy ifodasiga — Nur deganda nimani tushunasiz?, Nur bilan farzand orasida aloqadorlikni qanday tushunasiz? kabi savollar berishimiz mumkin.

Bu savollarga quyidagicha javob berishi mumkin.

Ko'zimning nuri – tasviriy ifodasida asosiy diqqat nurga qaratilgan. Inson hamisha yaxshilikka qarab intiladi. Har qanday epizotik holatda ham o'z maqsadida foydalanishga harakat qiladi. Bilamizki, nur (ko'pincha quyosh nuri nazarda tutiladi) olamni munavvar qiluvchi timsoldir. Nur tushunchasidagi ifoda ko'zga o'tgan. Natijada ko'zning nuri olamni munavvar qiluvchi vosita vazifasini o'tamoqda.

Ana shu nur ma'nosi ota-ona uchun farzand timsoliga ko'chirilgan. Darhaqiqat, ota-onaning (insonning) butun orzu-umidlari, istaklari farzand bilan bog'liqdir. Nur olamni yoritganidek, farzand ota-ona olamini yorituvchi manbadir. Bu o'z o'rnida sharqona (o'zbekona) odob-axloq normalariga mos keladi.

Demak, ko'zimning nuri tasviriy ifodasining ma'nosi– farzanddir.

Qalbim quyoshi tasviriy ifodasiga — Quyosh nima va qanday vazifani bajaradi? Qalbning ham quyoshi bo'ladimi? kabi savollar berishimiz mumkin.

Bu savollarga o'quvchilar quyidagicha javob beriladi.

Quyosh - olamni yorituvchi, nurafshon qiluvchi osmon jismi bo'lib, u butun yer yuzini o'zining zarrin nurlari bilan isitadi. Uning issiq taftidan butun

insonlar, barcha mavjudot bahra oladi. Quyoshning bu xususiyatlari qalbga ko'chganda, qalbimizni isituvchi, nurafshon qiluvchi degan ma'no kelib chiqadi. Bizning qalbimizni isituvchi, nurafshon qiluvchi inson – dunyodagi eng buyuk zot onadir.

Qalbim quyoshi tasviriy ifodasining ma'nosi esa – *ona* so'ziga teng keladi.

Zangori kema tasviriy ifodasiga – Kema qayerda suzadi? Daryodami ? Dengizdami? Ko'ldami?, Dengizning tebranishini yana nimalarga o'xshatasiz? kabi savollar berishimiz mumkin.

Kema asosan dengizda suzadi. Dengiz suvining tebranishini keng maydonlardagi paxta yoki bug'doyzorlarning shamolda tebranishiga o'xshatishimiz mumkin. Bu *zangori kema* tasviriy ifodasi orqali paxta teraydigan mashina nazarda tutilmoqda.

Demak, *zangori kema* – *paxta teraydigan mashina*.

Bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar tasviriy ifodalalar va ularning xususiyatlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladilar. Chunki topshiriqni bajarish jarayonida o'zlari faol ishtirok etadilar, tasviriy ifodalarning nutqdagi ta'sir kuchini his qiladilar. O'quvchilardagi ana shu umumiy tushuncha va xulosalarni mustahkamlash maqsadida nazariy ma'lumotni tushuntiramiz.

Yangi mavzu bayoni ekranga slayd asosida chiqariladi.

Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriy ifoda deyiladi.

Tasviriy ifodalalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi

Ular asosan ot va sifat so'z turkumi doirasida bo'ladi va badiiy uslubga xosdir.

Masalan: O'rmon podshosi – sher, dala malikasi – makkajo'xori;

Tasviriy ifodalalar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Yangi mavzu bayoni berilgach, o‘quvchilarning yangi nazariy ma’lumotlarini qanday o‘zlashtirilganini sinash maqsadida ekranga bir qancha rasmlar va o‘sha rasmlarga mos tasviriy ifodalar chalkashtirib keltiriladi. O‘quvchilar rasmlarga mos tasviriy ifodalarni topib, ularni izohlaydi.

Yangi mavzuni o‘quvchilarning qay darajada o‘zlashtirganini qo‘shimcha savollar berish orqali ham tekshirib ko‘ramiz. Agarda biror tushunmovchilik sezsak o‘quvchilarga mavzuni qaytadan to‘ldiramiz.

O‘quvchilarning olgan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan mashqlarni bajartiramiz.

544-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va ularga izoh bering.

Bu mashqni bajarishda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va og‘zaki nutqini rivojlantirish maqsadida dastlab ulardan og‘zaki so‘raymiz, shuningdek, yozma nutqini ham rivojlantirish maqsadida daftarlariga yozadi.

Mo‘yqalam sohibi —

Salomatlik posbonlari —

Charm qo‘lqop ustasi —

G‘azal mulkinging sultoni —

Hayotimiz qomusi —

Mo‘yqalam sohibi tasviriy ifodasiga — Mo‘yqalam nima? Undan qachon va kimlar foydalanadi ? kabi savollar berishimiz mumkin.

O‘quvchilar mo‘yqalam rasm chizadigan asbob, undan rasm chizayotganda va rassomlar foydalanishini aytib, mo‘yqalam sohibi rassom ekanligini topishadi.

Qolgan tasviriy ifodalarni ham savollar berish orqali qaysi so‘zga teng kelishini topib, ma’nosini izohlatamiz.

Mo‘yqalam sohibi — rassom;

Salomatlik posbonlari — shifokorlar;

Charm qo‘lqop ustasi — bokschi;

G‘azal mulkinging sultoni — Alisher Navoiy;

Hayotimiz qomusi — konstitutsiya;

Bu mashqni bajarish orqali o‘quvchilar tasviriy ifodalar haqida yana qo‘shimcha ma’lumotlar olib, savollar berish orqali tasviriy ifodalarni topish, ma’nosini izohlash ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantiradilar.

O‘quvchilarga 545-546- mashqlarni shartlari o‘xshash bo‘lganligi sababli birgalikda bajartirishimiz mumkin.

545-mashq. Gaplarni o‘qing. Tasviriy ifodalar orqali nimalar haqida gap ketayotganini belgilang.

1. Zangori ekran orqali “Qishloqdagi tengdoshim” ko‘rsatuvi namoyish etildi.

2. Oq oltin ijodkorlari bu yil ham o‘z zimmalaridagi vazifani sharaf bilan bajarishdi. 3. Dalalarga baraka urug‘i ekib bo‘lindi.

546- mashq. Gaplarni o‘qib, tasviriy ifodalarni toping, ularga izoh bering.

1. Yayalov bahodirlari qo‘zilatish kampaniyasini boshlab yubordilar. 2. Yurtimizga uzoq o‘lkalardan qanotli do‘stlarimiz uchib kela boshladi. 3. O‘zbekiston qora oltini bilan ham dunyoga mashhur bo‘lmoqda.

Bu mashqlarni bajarishni **“Intervyu olish”** o‘yinidan foydalanib, musobaqali tarzda tashkil etamiz. Dastlab sinfni ikki guruhga bo‘lib olamiz va ularga **“Lochinlar”** va **“Burgutlar”** deb nom beramiz. Har bir guruhdan bittadan jurnalist tanlanadi.

“Lochinlar” guruhining jurnalisti 545-mashqdagi gaplarni o‘qib, o‘sha gapda qanday tasviriy ifoda qatnashganini **“Burgutlar”** guruhining xohlagan vakilidan so‘raydi. Ular javob berishadi.

1. “Lochinlar” guruhining jurnalisti savol berib, so‘raydi.

1. Zangori ekran orqali “Qishloqdagi tengdoshim” ko‘rsatuvi namoyish etildi.

Ushbu gapda keltirilgan tasviriy ifodani toping ? Bu tasviriy ifoda orqali nima haqda gap ketepdi?

“Burgutlar” guruhining tanlangan vakili javob beradi.

Tasviriy ifoda – *zangori ekran* . Gapda *zangori ekran* tasviriy ifodasi orqali *televizor* haqida gap ketmoqda.

O‘yin shu tarzda davom etib, 2-3- gaplar ham yuqoridagidek so‘raladi.

Jurnalist:

2.Oq oltin ijodkorlari bu yil ham o‘z zimmalaridagi vazifani sharaf bilan bajarishdi.

Ushbu gapda keltirilgan tasviriy ifodani toping ? Bu tasviriy ifoda orqali nima haqida gap ketmoqda?

“Burgutlar” guruhining tanlangan vakili javob beradi.

Tasviriy ifoda – *oq oltin ijodkorlari*. Bu tasviriy ifodada *paxtakorlar* haqida gap ketmoqda.

“Lochinlar” guruhining jurnalisti :

3.Dalalarga baraka urug‘i ekib bo‘lindi.

Ushbu gapda keltirilgan tasviriy ifodani toping ? Bu tasviriy ifoda orqali nima haqida gap keteyotganini ayting?

Yana **“Burgutlar”** guruhining tanlangan vakili javob beradi.

Tasviriy ifoda – *baraka urug‘i*. Bu tasviriy ifodada *don* yoki *chigit* haqida gap ketmoqda.

546- mashqni esa **“Burgutlar”** guruhining jurnalisti o‘qib, o‘sha gapda qanday tasviriy ifoda qatnashganini **“Lochinlar”** guruhining xohlagan vakilidan so‘raydi. Ular javob berishadi.

2. “Burgutlar” guruhining jurnalisti savol berib, so‘raydi.

1. Yayalov bahodirlari qo‘zilatish kampaniyasini boshlab yubordilar.

Bu gapda qanday tasviriy ifoda qatnashgan? Bu tasviriy ifoda qaysi so‘zga teng keladi?

“Lochinlar” guruhining tanlangan vakili javob beradi.

Bu gapda *yayalov bahodirlari* tasviriy ifodasi qatnashgan, bu tasviriy ifodaning ma‘nosi *cho‘ponlar* so‘ziga teng keladi.

Jurnalist:

2. Yurtimizga uzoq o'lkalardan qanotli do'stlarimiz uchib kela boshladi.

Bu gapda qanday tasviriy ifoda qatnashgan? Bu tasviriy ifoda qaysi so'zga teng keladi?

“**Lochinlar**” guruhining tanlangan vakili javob beradi.

Bu gapda *qanotli do'stlar* tasviriy ifodasi qatnashgan, bu tasviriy ifodaning ma'nosi *qushlar* so'ziga teng keladi.

“**Burgutlar**” guruhining jurnalisti:

3. O'zbekiston qora oltini bilan ham dunyoga mashhur bo'lmoqda.

Bu gapda qanday tasviriy ifoda qatnashgan? Bu tasviriy ifoda qaysi so'zga teng kelishini ayting?

Yana “**Lochinlar**” guruhining biron-bir tanlangan vakili javob beradi.

Bu gapda *qora oltin* tasviriy ifodasi qatnashgan, bu tasviriy ifodaning ma'nosi *mamlakatimizning yer osti boyligi hisoblanmish neft* so'ziga teng keladi.

Bu mashqlardagi tasviriy ifodalarni to'g'ri topib, ularni to'g'ri izohlagan guruh g'olib sanaladi va ular rag'batlantiriladi.

Bu mashqlarni musobaqali tarzda bajarishni tashkil etishning ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilarning barchasini faol bo'lishga undab, darsga qiziqishini yanada oshiradi. Shuningdek, ularning og'zaki nutqi va fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Darsda o'rinsiz zerikishlarga yo'l qo'yilmaydi.

547-mashq. Kumush tola, o'rmon malikasi, aql gimnastikasi, oltin boshqoq tasviriy ifodalariga izoh berib, ular ishtirokida gaplar hosil qiling va daftaringizga ko'chirib yozing.

Bu mashqni bajarishda o'qituvchi darsda faol qatnashmagan o'quvchilardan so'rasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastlab tanlangan o'quvchi bitta tasviriy ifodani izohlab, unga gap tuzadi. Keyingi tanlangan o'quvchilar ham shunday davom ettiradi va qolgan barcha o'quvchilarga tasviriy ifodalarni o'zlari

mustaqil izohlab daftarlariga yozish talab qilinadi. Bu bilan o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini yanada rivojlantirishga erishamiz.

Kumush tola — ipak .

Kumush toladan bizning milliy matolarimiz tayyorlanadi.

O‘rmon malikasi – archa .

Bolalar sayohatga borganingizda o‘rmon malikasiga ziyon yetkazmang.

Aql gimnastikasi – matematika, shaxmat

Aql gimnastikasi fanlar ichida shohdir.

Oltin boshqoq – bug‘doy.

Bizning tumanimizda oltin boshqoq yetishtiriladi.

Mashqni bajarib bo‘lganimizdan so‘ng yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga **“Aqliy hujum”** metodidan foydalanib savol va topshiriqlar bilan murojaat qilamiz.

Savollar umumiy tarzda beriladi.

1. Tasviriy ifoda nima?
2. Tasviriy ifodalarning nutqimizdagi ahamiyatini tushuntiring?
3. Tasviriy ifoda bilan u ifodalagan narsa va hodisa o‘rtasida qanday o‘xshashlik borligini aniqlang?
4. Tasviriy ifodalar asosan qaysi so‘z turkumlari doirasida bo‘ladi?
5. Keltirilgan tasviriy ifodalarning birini tanlab, bog‘li matn tuzing?

Salomatlik posbonlari, zangori olov, samo lochini, o‘rmon podshosi.

Mustaqillik sharofati bilan qadimgi axloq-odob normalariga katta e‘tibor berilmoqda, xususan, maktablarimizda bu masalaga jiddiy e‘tibor berish kerak. Bu borada ona tili darslarining imkoniyati juda keng. Chunki har qanday pandnoma, nasihatnoma, rivoyatlar grammatik kategoriyaga moslashtirilgan holda o‘quvchilarga tushuntirilishi mumkin.

Biz yuqoridagi savollarga qo‘shimcha ravishda quyidagi **“Nasihatnoma”** matnini berish orqali o‘quvchilarning tasviriy ifodalar haqida yanada chuqurroq

ma'lumot beramiz. Ayni paytda, matn mazmunini eslatib ham qo'yamiz. Bu matnni ishlashda "Eslab qol" o'yinidan foydalanish ijobiy natija beradi. Matn o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ifodali o'qib beriladi, o'quvchilar esa matnda berilgan tasviriy ifodalarni topadilar. Shuningdek, bu o'yin orqali o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash maqsadida ham foydalanishimiz mumkin.

Nasihatnoma

Bir ish bilan boshqa yerga ketib, u yerda bir necha vaqt turib qolgan bir ota o'z o'g'liga shu nasihatimiz maktubni yo'llaydi:

"Sevikli o'g'lim!

Vijdonning lavhasini insof, adolat gavhari birlan bezat, chunki insof, adolat insoniyat olamining porloq quyoshidir. Bu quyoshdan fayz olgan odamlar baxtiyordirlar.

Belimning quvvati, o'g'lim!

Qalbing oynasini yoshlik g'ururi birlan nurposh et, xoinlik, g'arazlik kabi behuda be'maniliklar chang-g'ubori ila xira qilma. Agar shunday be'maniliklarni qilsang, insoniy vazifangni suiiste'mol qilgan bo'lasan va jamiyat qoshida mas'uldirsan.

Ko'zimning nuri!

Davlat va xalq qoshida izzatli va obro'li bo'lishni istasang, jamiyat tomonidan senga berilgan vazifani chin ixlos bilan bajarg'il, vazifashunos bo'lg'il. Vazifasini tanimagan, ado qilmagan odamlar sharmanda, sharmisor va nafratga sazovardirlar.

Ko'zimning qorachig'i!

Senga jonidan ham ortiq muhabbati bo'lgan otangning rizosi va qalbining xush bo'lishi sening zulm, jabr va adolatsizlikdan saqlanishing bilan hosil bo'lg'ay. Angla, o'g'lim, jabr, zulm, adolatsizlik yashinga o'xshash bo'lib, tushgan joylarini yangidan ta'mir qilish mumkin bo'lmagan darajada yoqib, yondirib, parishon qiladir. Sening asl zotingda bo'lgan poklik, oliyjanoblik o'tkir zaharli yaramas hislarga yo'l qo'ymaydi, deb ishonaman. Doimo, adolatli, muloyim, tavozei, shavqatli bo'l.

Hayotim sarmoyasi!

Shu kunlarda o‘z tengdoshlaring bilan urishib, ba’zi vaqtda hatto yoqalashganingni eshitib, ko‘nglim parishon bo‘ldi. Bilaman, sen arslon kabi kuch-quvvatga ega bo‘lgan yigitsan. Qahramonlik faqat kuch-quvvatni iste’mol qilishda emas qahru-g‘azabni yutishdadir. Jon o‘g‘lim, qahru g‘azabli bo‘lma, muloyim, shavqatli va marhamatli bo‘l. Go‘zal hislatlaring bilangina hammami o‘zingga rom aylaysan, senga ozor berganlarni xushmuomalang bilan uyaltirasan.

Senga uzoq umr, baxt-saodat tilab, so‘zimni tamom qilaman, aziz o‘g‘lim ”.

(“Donolar o‘giti” kitobi)

Bu matnda *belimning quvvati, ko‘zimning nuri, ko‘zimning qorachig‘i, hayotim sarmoyasi* kabi tasviriy ifodalar qatnashgan bo‘lib, hammasining ma’nosi *farzand* so‘ziga teng keladi.

Darsni mustahkamlab bo‘lgach, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

Keyin 548-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

548-mashq. Uyga topshiriq. Tasviriy ifodalarning izohini yozib keling.

Samo lochini —

Kumush choyshab —

Po‘lat ot —

Zangori olov —

O‘quvchilar bu tasviriy ifodalarning izohini uyda mustaqil ravishda quyidagicha topib kelishi mumkin.

Samo lochini — samolyot.

Kumush choyshab — qor.

Po‘lat ot — poyezd.

Zangori olov — gaz.

O‘quvchilarga tasviriy ifodalarni o‘tish metodikasi orqali ularning nutqini o‘stirish, ta’sirchan va jozibador qilish bilan birga, nutqda tasviriy ifodalardan o‘rinli foydalana olish ko‘nikmalarini ham hosil qilamiz.

XULOSA

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va boshqa ta’lim tizimiga oid hujjatlar ta’lim mazmunini keskin o’zgartirdi. Natijada o’zbek tilining o’ziga xos jozibasini, go’zalligini, ta’sirchanligini ko’rsatishni maktab partasidan boshlash va uzluksiz davom ettirish vazifasini yukladi. Ana shu nuqtaiy nazardan yondoshilganda har bir til xodisasiga, xususan, iboralar va tasviriy ifodalarga a’lohida e’tibor qaratishni taqoza qilmoqda. Iboralar va tasviriy ifodalarni o’tish orqali o’quvchilar nutqini oshirish mavzusi bo’yicha tayyorlangan BMI ga quyidagicha qisqacha xulosa qilish mumkin.

1. BMI ning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati haqida batafsil to’xtaldi. Shuningdek, bu mavzu bo’yicha e’lon qilingan ilmiy va ilmiy metodik ishlar haqida ham qisqacha ma’lumot berildi.

2. BMI ning birinchi bobi **“Iboralar haqida qisqacha ma’lumot”** deb nomlanadi. Bu bobda ibora, iboralarning ko’p ma’noligi, ularning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari haqida nazariy ma’lumot berilib, misollar asosida tahlil qilindi. Shuningdek iboralarning uslubiy hususiyatlari haqida ham qisqacha ma’lumot berish natijasida, ularning badiiy va so’zlashuv uslubida ko’proq qo’llanishiga amin bo’ldik.

Iboralar yuzasidan nazariy ma’lumotni o’rganish shuni ko’rsatadiki, hamma iboralarni ham maktab darsligiga yoki o’quvchilarga havola qilish mumkin emas. Ulardan qaysilarini o’quvchilarga yetkazdirish, qaysilarini umumiy, nazariy ma’lumot sifatida saqlab qolish masalalari ishlab chiqildi.

3. Ikkinchi bob **“Iboralar o’quvchilar nutqini o’stiruvchi vosita”** deb nomlangan. Bu bobda asosiy e’tibor iboralarni o’tish orqali

o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga, ya’ni o‘quvchilarni ijodiylikka, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri, aniq, ravon, og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish, shuningdek, mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun nutq o‘stirish metodikasi, nutq o‘stiruvchi vositalar, o‘rta maktab darsligi bo‘yicha iboralarni o‘tish metodikasi, iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmasidan farqini o‘tish va iboralar yuzasidan qo‘shimcha mashq va topshiriqlarni o‘tish metodikasi kabi masalalar batafsil yoritib berildi.

4. Hozirgi kunda darslarni noan’anaviy usulda tashkil etish zamon talablari darajasiga ko‘tarilganligi sababli, darslikda berilgan topshiriq, shu asosda berilgan nazariy ma’lumotlarni tushuntirish, hamda mashqlarni bajarishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darslarni noan’anaviy usulda tashkil etish yo‘llari asoslanib berildi. Bu borada ta’limiy grammatik o‘yinlar, topshiriqlar, darslarni musobaqali tarzda tashkil etish, slaydlar asosida o‘quvchilarga nazariy bilimlar berish, shuningdek o‘tilgan mavzularni mustahkamlashda tarqatma materiallar va testlardan foydalanib dars jarayonini tashkil qilishni tavsiya qildik.

Darslarni bunday tashkil etish o‘quvchilarning darsga qiziqishini yanada kuchaytirib, ularning faolligini oshiradi. Darslarda o‘rinsiz zerikishlarning oldini oladi.

5. Uchinchi bob **“Tasviriy ifodalar o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi vosita”** deb nomlanib, ushbu bobda dastlab tasviriy ifodalar haqida qisqacha nazariy ma’lumot berildi va tasviriy ifodalar o‘tish metodikasiga batafsil to‘xtalib, bu bobda ham asosiy e’tibor tasviriy ifodalar o‘tish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishga va yanada jozibador, ta’sirchan qilishga qaratilgan. Bu mavzuni o‘tishda ham bir qancha grammatik-o‘yin topshiriqlar ishlab chiqildi. Tasviriy ifodalarning ma’nosini izohlash orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishga harakat qilindi.

6. Tasviriy ifodalar nutqimizning koʻrki , uning rang-barang, chiroyli, taʼsirchanligini yanada oshiradi. Bu xulosa oʻquvchilarga faktik materiallar asosida tushuntirish yoʻllari tavsiya qilindi. Masalan, makkajoʻxori – dala malikasi atamaları aynan bir xil tushunchani ifodalasada, bir-biriga qiyoslangan holda ularni oʻquvchilarga his qildirish metod va usullari ishlab chiqildi.

7. Tasviriy ifodalar ishtirokida rasmga qarab matn tuzish, mustaqil matn tuzish, mashqlar tavsiya qilindi. Bu jarayonda oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqlari hamda orfografik maʼlumotlari tekshirib koʻrildi.

8. Iboralar va tasviriy ifodalar orqali oʻquvchilar nutqini oʻstirish masalasi maktab darsliklari materiallari asosida imkoniyat darajasida ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. I.A Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. Toshkent - “O‘zbekiston”, 2011-yil.
2. I.A Karimov . “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent. : “Ma’naviyat”, 2008- yil.
3. I.A Karimov . Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir // : “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida ”. 6-qism.- Toshkent - “O‘zbekiston”, 1998- yil.
4. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori – Toshkent. 1998.
5. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. Toshkent: “Sharq” 2001 yil.
6. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standart va o‘quv dasturi. Ona tili, Adabiyot, O‘zbek tili (5-9-sinflar), Toshkent, 2010 -yil.
7. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. 1-qism. Toshkent, “O‘qituvchi”. 1980- yil.
8. “O‘zbek tili grammatikasi”. I-tom. Morfologiya, “FAN” nashriyoti, Toshkent-1975.
9. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhamedova. “O‘zbek tili praktikumi”. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”, 2006- yil.
10. Yo. G‘ulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B.Mirzaahmedov “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent – 1975- yil.
11. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T, Ziyodova “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent- 2010- yil.
12. Sh.Rahmatullayev. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”. O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent – 1978- yil.
13. Sh. Rahmatullayev. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”. Qomuslar Bosh tahririyati, Toshkent – 1992- yil.

14. N . Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo‘raboyeva. “Ona – tili”, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik 3-nashri, Toshkent “Ma’naviyat”, 2011- yil.

15. A. Nurmonov, A .Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik, Toshkent “Sharq” 2002- yil.

16. Baxtiyor Mengliyev, O‘ral Xoliyorov. “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma”. Toshkent. “Akademnashr” 2011-yil.

17. B. To‘xliyev, Sh. Yusupova, Z. Rayimberdiyeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi. Toshkent – 2010- yil.

18. Sh. Almamatova “O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili” Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent-2008- yil.

19. “Til va adabiyot ta’limi ” jurnalining 2008-yil №5

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakultetining bitiruvchisi

Tojiyeva Hulkarning **“Iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish metodikasi”** mavzusidagi BMI ga ilmiy rahbarning

XULOSASI

Takomillashtirilgan DTS hamda uzviylashtirilgan dastur talablariga ko‘ra o‘quvchilar nutqini oshirish kun tartibiga asosiy masala sifatida qo‘yilgan.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda ona tili darslarining o‘rni juda katta. Buni nazarga tutgan holda maktab ona tili darsliklari yaratilmoqda. Darslikda berilgan materiallarni o‘quvchilarga tushunarli, sodda va oson tushuntirish o‘qituvchining vazifasidir.

Ma’lumki iboralar nutqning mazmundorligini, ta’sirchanligini ta’minlovchi til hodisasi sanaladi. Uni darsda o‘rganish alohida mahoratni kasb etadi. Shu ma’noda Tojiyevaning BMI ishi dolzarb mavzulardan sanaladi.

BMI kirish, uch bob va qisqa xulosadan iborat. Kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mavzuga oid ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Asosiy qismida o‘rta maktabda iboralarni o‘tishda mavzu uchun berilgan topshiriqlar tahlili, shu asosda nazariy ma’lumotlarni tushuntirish metod va usullari tavsiya qilingan. Bu borada ta’limiy grammatik o‘yinlar ishlab chiqilgan. O‘yinlarni qo‘llash metodlari ishlab chiqilgan, iboralarni o‘tish orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari asoslangan. Ishda qisqacha xulosa ham ilova qilingan.

Tojiyeva Hulkar tomonidan “Iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish metodikasi” mavzusidagi BMI ni nihoyasiga yetgan deb hisoblayman va himoyaga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:

dots. T. Almamatov

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Tojiyeva Hulkarning **“Iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish metodikasi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, amaliy ahamiyati va mavzu yuzasidan e‘lon qilingan ilmiy va ilmiy - metodik ishlar tahlili yoritilgan.

Asosiy qismning birinchi bobi **“Iboralar haqida qisqacha ma‘lumot”** deb nomlanib, unda iboralar, iboralarning ko‘p ma‘noligi, ularning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari haqida qisqacha nazariy ma‘lumot berilib, misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, iboralarning stilistik ahamiyati kabi masalalarga ham batafsil to‘xtalgan.

Ishning ikkinchi bobi **“Iboralar o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi vosita”** deb nomlanadi. Bu bobda asosiy e‘tibor iboralarni o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga, mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun nutq o‘stirish metodikasi, nutq o‘stiruvchi vositalar, o‘rta maktab darsligi bo‘yicha iboralarni o‘tish metodikasi, iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmasidan farqini o‘tish metodikasi kabi masalalarga to‘xtalgan. Iboralar mavzusini o‘tish bo‘yicha bir qancha ta‘limiy grammatik o‘yinlar ishlab chiqilib, ularni qo‘llash metod va usullari tavsiya qilingan.

BMI ning uchinchi bobi esa **“Tasviriy ifodalar o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi vosita”** deb nomlangan. Bu bobda tasviriy ifodalar haqida qisqacha nazariy ma‘lumot berib, tasviriy ifodalar ham o‘quvchilar nutqini o‘stiruvchi, ta‘sirchan va yanada jozibador qiluvchi vosita ekanligi yoritilib berilgan. Darslikda bu mavzu uchun berilgan mashqlar uchun grammatik o‘yin-topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Ishning xulosa qismida yuqoridagi ko'rsatilgan boblar orqali qanday maqsadlarga erishilganligi tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va qo'llanmalar, ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar, Davlat ta'lim standartlari va maktab darsliklaridan unumli foydalangan holda yozilgan.

Bitiruvchi Tojiyeva Hulkarning **“Iboralar va tasviriy ifodalarni o'tish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish metodikasi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi iboralar va tasviriy vositalar mavzusini o'rganishda o'quvchilar nutqini o'stiruvchi metodik ishlar qatoridan o'rin oladi deb o'ylayman va uni a'lo yozilgan ishlar qatorida baholayman.

G'allaorol ijtimoiy-iqtisodiyot
kollejining ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Fayzullayeva. S.

MUNDARIJA

1. Kirish-----	2-8
2. 1-bob. Shaxs otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish-----	9-21
3. 2-bob: Narsa otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish-----	22-32
4. 3-bob: O‘rin joy otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy vositalarni o‘tish-----	33-53
5. Xulosa-----	54-56
6. Adabiyotlar ro‘yxati-----	57-58